

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va
o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

Buxoro davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti

Tuproqshunoslik va geografiya kafedrası

**BITIRUV
MALAKAVIY ISh**

**Mavzu: Navoiy viloyati shahar manzilgohlari va
ular rivojlanishining geografik asoslari**

5140600 – Geografiya ta'lim yo'nalishi

bitiruvchisi: G'ayratova Nargiza Jonpo'latovna

Ilmiy rahbar: g.f.n., dost. A.M.Mavlonov

Himoyaga tavsiya etildi: _____ “ ” may 2015 yil
(imzo)

Buxoro – 2015

NAVOIY VILOYATI SHAHAR MANZILGOHLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

REJA

KIRISH	3
I BOB. NAVOIY VILOYATI SHAHARLARINING VUJUDGA KELISHI VA JOYLASHISHI	
1.1. NAVOIY VILOYATINING QISQACHA UMUMGEOGRAFIK TAVSIFI	5
1.2. NAVOIY VILOYATI SHAHARLARINING RIVOJLANISH TARIXI	10
1.3. SHAHARLARNING DEMOGRAFIK VAZIYATI VA MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI	24
II BOB. NAVOIY VILOYAT SHAHARLARIGA IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIF	
2.1. VILOYAT SHAHARLARINING QISQACHA IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIF	29
A) Navoiy shahri	29
B) Zarafshon shahri	33
V) Nurota shahri	37
G) Uchquduq shahri	40
D) Qiziltepa shahri	42
E) Yangirabot shahri	43
2.2. NAVOIY VILOYATI SHAHARCHALARIGA TA'RIF	
A) Karmana	44
B) Konimex	46
V) G'ozg'on	47
XULOSA VA TAKLIFLAR	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	50

Kirish

“Navoiy viloyati deganda – avvalo ko’z oldimizga buyuk shoirimiz Alisher Navoiy nomini sharaflab kelayotgan, ko’ngli ochiq, zaxmatkash, saxovatli insonlar, bunyodkorlik bilan band bo’lgan ko’p millatli xalqni o’zimga tasavvur qilaman. Navoiy viloyati deganda – bu go’zal vohaning betakror tabiati, cheksiz cho’l va dalalar, bepoyon yaylovlar bilan birga, ulkan sanoat mintaqasi ko’z o’ngimizda namoyon bo’ladi.

Navoiy viloyatida Olloh o’zi xalqimizga in’om etgan, yurtimiz salohiyatini yuksaltirishga xizmat etadigan, boshqacha aytganda, belimizni baquvvat, qadr-qimmatimizni baland, qo’limizni uzun qiladigan, odamlarimizning farovon turmushiga asos bo’ladigan ko’p-ko’p tabiiy boyliklarning ulkan zaxiralari mavjud. Bulardan eng asosiysi – o’zining yuksak sifati bilan butun dunyoda mashhur bo’lgan Qizilqum oltinidir.

O’tgan yili nufuzli Tokio birjasi o’zbek oltiniga sifat sertifikatini berib, uni oltin etaloni – ya’ni butun dunyo bo’yicha tilla sifatini baholashning mezonini qilib belgilab qo’ydi...”¹

Darhaqiqat, O’zbekiston iqtisodiyotida munosib o’rin tutadigan Navoiy viloyatining iqtisodiy – ijtimoiy geografik jihatlarini, xususan, uning shaharlar geografiyasini o’rganish katta ilmiy - amaliy ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, men bitiruv malakaviy ishimni Navoiy viloyatining shaharlariga bag’ishladim.

Ushbu mavzuni tanlashimga quyidagilarni sabab qilib ko’rsatish mumkin:

- Iqtisodiy geografiyaning tarmoqlari orasida shaharlar geografiyasiga oid tadqiqotlarni ko’proq o’tkazilganligi;
- Shaharlar geografiyaning muhim tadqiqot ob’ektidan biri bo’lib, ularni o’rganishning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy tomonlari mavjud;
- O’zbekistonning eng kenja va hududi jihatdan eng katta viloyatida shaharlar to’rining yaxshi rivojlanmaganligi;

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida (1998 yil) so’zlagan nutqid.

- Viloyat shaharlarining genetik va funkstional tarkibining o'ziga xosligi;
- Qolaversa, o'zim shu viloyatda tug'ilganligim va uning shaharlar geografiyasini o'rganish farzandlik burchim, deb hisoblayman.

Ishning maqsadi – Navoiy viloyati shahar manzilgohlarning iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlarini o'rgatishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** bajarish talab etiladi:

- Navoiy viloyati shaharlarini tarixiy-geografik tavsiflash;
- Viloyat shaharlarining demografik vaziyatini o'rganish;
- Shaharlar sanoati va transportini tadqiq etish;
- Ijtimoiy-madaniy tarmoqlar rivojlanishini o'rganish;
- Shaharlar rivojlanishida vujudga kelgan ayrim muammolarni aniqlash va ularni hal qilish borasida ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish va x.k.

Yuqoridagilarga tayangan holda, men o'zimning bitiruv malakaviy ishimda Navoiy viloyatining shaharlarini o'rganishga harakat qildim. Viloyat shaharlariga oid bir qancha ilmiy va ommaviy adabiyotlar, kundalik matbuot materiallari hamda O'zbekiston Respublika Davlat statistika qo'mitasi va Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlarini tahlil qilish asosida bitiruv malakaviy ishimni tayyorladim.

I BOB. NAVOIY VILOYATI SHAHARLARINING VUJUDGA KELISHI VA JOYLASHISHI

1.1. NAVOIY VILOYATINING QISQACHA UMUMGEOGRAFIK TAVSIFI

Navoiy viloyati 1982 yilda tashkil etilgan. Viloyat g'arb va janubi-g'arbdan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyat bilan, janubdan Qashqadaryo, janubi-sharqdan Samarqand, sharqdan Jizzax viloyati bilan, shimoldan Qozog'iston Respublikasi chegaradoshdir. Viloyat hududi 111,0 ming kv km bo'lib, respublika hududining 25 foizini yoki to'rtidan bir qismini egallaydi.

Viloyat iqlimi keskin kontinental, cho'l iqlimi. Viloyatning shimoliy hududlarida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 232 mm ni, janubiy hududlarida esa o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 170 mm ni tashkil etadi. Yoz oylarida havo harorati + 48,2⁰ gacha isib ketishi va qish oylarida – 32,3⁰ gacha sovib ketishi kuzatilgan. Viloyatning markazi Navoiy shahri hisoblanib, dengiz sathidan 340 metr balandlikda joylashgan.

1-jadval

Navoiy viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi (01.01.2013 y)

№	Shahar va tumanlar nomi	aholi soni, ming kishi	shu jumladan:		Hudud maydoni, ming kv.km.	Aholi zichligi, 1 km ² /kishi	Shaharlar soni	Shaharcha lar soni	qishloq fuqarolik yig'inlari	qishloq aholi punktlari	mahallalar soni
			shahar	qishloq							
1	Navoiy shaxri	134,3	134,3	0	0,05	2620,0	1	1	0	0	30
2	Zarafshon shaxri	73,1	73,1	0	0,02	3620,0	1	1	0	0	13
3	Karmana tumani	107,3	39,0	68,3	0,95	106,4		6	6	87	37
4	Konimex tumani	29,4	10,3	19,1	9,14	4,1		4	7	43	8
5	Kiziltepa tumani	135,3	45,7	89,6	2,19	54,8	1	12	8	125	47
6	Navbaxor tumani	99,2	15,8	83,4	1,57	55,9		5	7	67	40
7	Nurota tumani	83,1	50,4	32,7	6,53	12,3	1	5	6	53	32
8	Tomdi tumani	15,4	5,1	10,3	42,4	0,5		1	7	34	1
9	Uchkuduk tumani	34,7	29,3	5,4	46,6	0,8	1	1	5	23	6
10	Xatirchi tumani	176,5	42,1	134,4	1,42	114	1	11	8	162	67
	Viloyat bo'yicha	888,4	445,2	443,2	110,99	7,7	6	47	54	594	281

Jadval Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Navoiy viloyati ma'muriy jihatdan 2 ta shahar va 8 ta tuman, 623 ta qishloq aholi punktlari mavjud bo'lib, o'rtacha 834,3 ming kishi istiqomat qiladi.

Shundan shahar aholisi umumiy aholining 39,6 foizini yoki 330,4 ming kishini, qishloq aholisi esa 60,4 foizini yoki 503,9 ming kishini tashkil etadi. Aholining zichligi 1 km. kv ga 7,51 kishi to'g'ri keladi.

Viloyatning Navoiy va Zarafshon shaharlari sanoatlashgan, Uchquduq, Tomdi, Nurota va Konimex tumanlari asosan chorvachilik hududlari sanalib, qorako'lchilikka ixtisoslashgan. Karmana, Navbahor, Xatirchi va Qiziltepa tumanlari dehqonchilikka ixtisoslashgan bo'lib, asosan paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish bilan shug'ullanadi.


Navoiy viloyati respublikadagi yirik industrial bazaga ega bo'lgan agrar viloyatlardan biri hisoblanib, ishlab chiqarish imkoniyatlari keng bo'lgan hududdir. Keyingi yillarda izchil amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida viloyatda sanoat sohasida ham sezilarli darajada o'zgarishlar amalga oshirildi. Buning natijasida sanoat tarmoqlari bugungi bozor talablariga moslashtirilmoqda.

Shu bilan birga bugungi kunda hududda sanoat sohasini yanada rivojlantirish, xaridorgir, bozorbop va sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida ko'prok chet el investitsiyalari jalb etish va zamonaviy texnologik asbob-uskunalar olib kelishga asosiy e'tibor qaratilmokda. Buning natijasida viloyatdagi yirik sanoat korxonalari bilan birgalikda bozor talablariga mos kichik sanoat korxonalari tashkil etilmokda.

Navoiy viloyati respublika sanoatining rivojlanishida salmoqli o'rinni egallab kelmoqda. Viloyat korxonalari tomonidan oltin, stement, uran, volfram, fosfarid, kimyoviy o'g'itlar, sun'iy tola kabi mahsulotlar hamda paxta xom ashyosi, bug'doy, qorako'l teri, go'sht va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi.

2013 yil yanvar-dekabr oylari davomida viloyatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish borasida barcha xo'jalik faoliyati sohalarida, jumladan, ichki bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

1-rasm. Navoiy viloyatda ishlab chikarilgan yalpi hududiy mahsulot tarkibi (2013 yil, foizda)



Rasm Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi

2013 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 2577,4 mlrd.so'm bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,2 foizni (prognoz 107,7 foiz) tashkil etdi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi topshirig'i 104,5 foiz o'rniga 107,1 foizni, qurilish ishlari hajmi 117,0 foiz o'rniga 107,2 foizni, chakana savdo aylanmasi hajmi 118,0 foiz o'rniga 121,5 foizni, jami xizmatlar hajmi 125,4 foiz o'rniga 120,6 foizni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi topshirig'i 105,3 foiz o'rniga 101,8 foizni, kapital quyilmalar hajmi topshirig'i 104,6 foiz o'rniga 113,8 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga YaHM hajmi 3038,7 ming so'mdan to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich Respublika bo'yicha 1726,3 ming so'mdan to'g'ri keladi.

Viloyat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mavqei tobora oshib bormoqda. 2013 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining YaHM dagi ulushi 30,7 foizni tashkil etdi.

Yuqoridagi diagrammadan (1-rasmdan) ko'rinib turibdiki, yalpi ichki mahsulot hajmining asosiy qismini, ya'ni 46,5 foizini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, 6,9 foizini qurilish, 14 foizini qishloq xo'jaligi, 4,3 foizini savdo va umumiy ovqatlanish, 3,5 foizini soliqlar tashkil etadi.

Viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, uning asosiy qismi, ya'ni 31 foizi Xatirchi tumaniga, 19 foizi Qiziltepa tumaniga, 16,6 foizi Navbahor tumaniga, 15,3 foizi Karmana tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy sohalarning rivojlanishi.

Viloyatda 3 ta pansionat mavjud, shundan NTMK tarkibida 1 ta, "Qizilqumstement" OAJ tarkibida 1 ta "Navoiyazot" OAJ tarkibida 1 ta pansionat aholiga xizmat qilmoqda.

Undan tashqari viloyatda xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, viloyat tarixiy o'lkashunoslik muzeyi, "Navo" ashula va raqs ansambli, xo'jalik xisobida faoliyat olib boradigan "O'zbeknavo" EB viloyat bo'limi, Navoiy Madaniyat va san'at kolleji viloyat ko'zi ojizlar kutubxonasi hamda 4 ta sport maktablari;

10 ta shahar va tuman Madaniyat va sport ishlari bo'limlari va ular tasarrufidagi 88 ta klub muassasasi, 5 ta madaniyat va istirohat bog'lari, 11 ta bolalar musiqa va san'at maktablari, 9 ta muzeylar viloyatning ko'p millatli aholisiga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Navoiy shahridagi "Farxod" va "Shirin" madaniyat saroylarida har kuni sahna ko'rinishlari, bayramoldi tantanalar o'tkazilib borilmoqda.

Yosh bolalarni dam olishlarini ta'minlash maqsadida har xil tugaraklar, ko'ngil ochar tadbirlar yo'lga qo'yilgan.

Navoiy shahrida 3 ta mehmonxona qad ko'targan bo'lib, ular shaharning ko'rkiga ko'rk berib turibdi. Viloyatda shunga o'xshash mehmonxonalar 9 tani

tashkil etib, ushbu mehmonxonalarda mijozlarga sifatli xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining hududlarda 10 ta bo'limmalari mavjud va ushbu harakat tomonidan yoshlarni birlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Viloyatda transport tizimini rivojlantirish jumladan, shahar va olis qishloqlarga olib boruvchi avtotransport yo'llarini ta'mirlash borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Yullar ravonlashmoqda.

Viloyat aholisining salomatligini tiklash maqsadida aholiga 40 ta shifoxona, 7 ta dispanser, 228 ta ambulatoriya poliklinika muassasalari tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Undan tashqari 136 ta qishloq vrachlik punkti, 106 ta feldsher akusherlik punkti mavjud bo'lib, ushbu ambulatoriya poliklinika muassasalarining quvvati har 10 ming kishiga 172 tadan to'g'ri keladi. Aholini kasalxona o'rinlari bilan ta'minlashni har 10 ming kishiga 52 ta o'rindan to'g'ri keladi.

Bugungi kunda viloyatda ikkita oliygoh “Navoiy davlat pedagogika” instituti va “Navoiy davlat Konchilik” instituti, 570 dan ortiq ta'lim muassasalari, shu jumladan 368 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, 202 ta xalq ta'limiga qarashli maktabgacha va 27 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 2 ta mehribonlik uylari va 3 ta «Oilaviy bolalar uy»lari, shuningdek 36 ta kasb-hunar kollejlari va 4 ta akademik listeylar faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda 1 ta axborot kutubxonalar markazi va 46 ta axborot resurslar markazlari aholiga xizmat ko'rsatib, ulardagi kitob fondi 2213281 tani tashkil etadi. Shu bilan birga 13 ta o'yingoh, 12 ta suzish basseynlari, 21 ta sport maktabi, 233 ta sport zallari, 33 ta tennis kortlari, 1903 ta sport maydonlari va maydonchalari viloyat aholisiga xizmat ko'rsatmoqda. Undan tashqari viloyatda 15 dan ortiq katta stadionlar mavjud bo'lib, ularda har xil o'yinlar sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

Viloyatda 239 dan ortiq tarixiy obidalar mavjud. Ushbu obidalar viloyatning tarixini aks etib turibdi.

1.2. NAVOIY VILOYATI SHAHARLARINING RIVOJLANISH TARIXI

Navoiy viloyati O'zbekistonning qadimiy aholi manzilgohlari joylashgan mintaqalardan hisoblanmasada, undagi Karmana, Sarmishsoy va Nurota singari aholi manzillari mamlakatimiz shaharlarining tarixiy-geografik tavsifida o'z o'rniga ega. Buxoro va Samarqand oralig'ida joylashgan ushbu shaharlar juda boy tarixga ega. Ammo ular goh rivojlanib, goh tushkunlikka tushib qolishgan. Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, viloyat hududida shaharlarning shakllanish tarixi miloddan avvalgi IV – I asrlarga borib taqaladi. Dastlab shaharlar qulay geografik o'rinda, atrofdagi joylar uchun markaz sifatida vujudga kela boshlagan. Ular nafaqat boshqaruv funkstiyasini, balki ijtimoiy-iqtisodiy (hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan) va harbiy-siyosiy (qala, mudofaa inshootlari) sohalarning mavjudligi bilan ham ajralib turgan. Lekin yuqoridagi tarmoqlar barcha qadimiy shaharlarda bir xilda rivojlanmagan edi. Bunga shaharlarning geografik o'rni, katta-kichikligi, vazifasi va aholisining turmush darajasi ta'sir qilgan.

Movarounnahrning barcha hududlari singari Navoiy viloyat shaharlari ham bir qancha yovuz dushmanlar zulmiga duchor bo'lgan. Ayniqsa viloyat shaharlari arablar, mo'g'ullar va ruslar zulmidan katta talofat ko'rgan. Biroq, ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng shaharlar kayta tiklanib, rivojlanishda davom etgan. Ammo turli davrlarda shaharlar rivojlanishi turlicha bo'lgan.

Garchi Navoiy viloyatidagi shahar manzilgohlari qadimdan shakllanib kelgan bo'lsa-da, ularning rivojlanishi asosan XX asr davomida avj oldi. Qolaversa, uzoq o'tmishda viloyat shaharlari, butun O'rta Osiyo shaharlari kabi an'anaviy savdo va hunarmandchilik negizida rivojlanib kelgan. Hozirgi ma'nodagi shaharlar, ya'ni ularning sanoat, transport kabi shahar paydo qiluvchi omillar asosida shakllanishi aynan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Binobarin, viloyat hududidagi mavjud shahar manzilgohlarini vujudga kelish va rivojlanish jarayoniga ko'ra quyidagi 3 bosqichga bo'lish mumkin.

- Chor Rossiyasini bosib olish davrida viloyat hududidagi shaharlar (1865-1917 yillar);
- Sho'rolar davrida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi (1917-1991 yil);
- Mustaqillik yillarida viloyat shaharlar to'ri va tizimining rivojlanishi.

1865-1917 yillar oralig'ida hozirgi viloyat hududi Buxoro amirligiga kirar edi. Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan davrda (1753 — 1920) Karmana alohida imtiyozli beklikka ajratilib, u Buxoro amirining valiahdi tomonidan boshqarilgan. Jumladan, Amir *Abdulahad* va Sayid Olimxonlarning qarorgohlari Karmana shahrida bo'lgan. Shuningdek, Karmana hunarmandchilikning asosiy markazlaridan biri bo'lib, u ichki mintaqaviy savdoda ham o'z o'rniga ega edi.

1865-1917 yillarda butun mintaqada bo'lgani kabi Navoiy viloyatida ham shaharga xos bo'lgan hayot tarzining rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonining birmuncha tezlashuvi kuzatildi. Lekin ko'pchilik manzilgohlar uchun hamon savdo va hunarmandchilik shahar hosil qiluvchi asosiy omil sifatida saqlanib qolindi.

Ko'rilayotgan davrda yuqoridagi shaharlar bilan birga Nurota va Xatirchi kabi birmuncha kattaroq aholi manzilgohlari ham bo'lgan. Lekin ular shahar maqomini olmagan bo'lsalarda o'z atroflari uchun markaz vazifasini bajarganlar. Bularda ham katta savdo rastalari, hunarmand va kosiblarning do'konlari, masjid hamda muqaddas qadamjolar mavjud edi. Shuningdek, ushbu manzilgohlar qishloq joylari bilan Karmana shahrini bog'lovchi tranzit tugunlar hisoblangan. Bu omillar kelajakda mazkur manzilgohlarni rivojlanishiga va ularni shahar joylari qatoriga kirishiga zamin yaratgan.

Umuman olganda, hozirgi O'zbekiston hududida 1917 yil 12 ta shahar (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Farg'ona, Xiva, Kattaqo'rg'on, Jizzax, To'rtko'l) ro'yxatga olindi. Afsuski, mazkur ro'yxatga viloyat shaharlaridan birorta ham vakil yo'q edi.

Sho'rolar davrida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi (1917-1991 yillar). Navoiy viloyatida shaharlar shakllanishining asosiy davri sobiq Sovet hokimiyati yillariga to'g'ri keladi. 1926 yilda o'tkazilgan 1-Butunittifoq aholi

ro'yxati ma'lumotlariga binoan O'rta Osiyoda 50, shu jumladan O'zbekistonda 29 manzilgoh shahar maqomini olishdi (Soliev, 1980). Ushbu shaharlar qatoriga Karmana ham kirgan. Shu bilan birga o'rganilayotgan davrda shahar manzilgohlarning yangi shakli shahar tipidagi posyolkalar (sh.t.p) vujudga keldi. Dastlabki aholi ro'yxatiga ko'ra, O'zbekistonda 17 ta sh.t.p. – lar ro'yxatga olingan bo'lib, ular orasida viloyatning yagona manzilgohi Nurota ham bor edi.

1938 yil 15 yanvardan boshlab O'zbekiston hududidagi okruglar tugatilib, respublika ma'muriy jihatdan viloyatlarga ajratildi. Hozirgi viloyat hududining katta qismi Buxoro viloyatiga, bir qismi Samarqand tarkibida edi. Viloyatda 1926-1939 yillar oralig'ida birin-ketinlik bilan yangi shaharchalar – Navoiy va Konimex (1935 y.) vujudga keldi. Shunday qilib, 1939 yilgi aholi ro'yxatidan keyin Navoiy viloyati shaharlar to'ri 1 ta shahar – Karmana va 3 ta shaharcha Nurota, Navoiy va Konimexdan iborat edi. Ushbu manzilgohlar O'zbekiston shahar manzilgohlarining (47 ta) 8,5 foizini hosil qilgan.

Farg'ona vodiysi va Toshkent rayoni kabi O'zbekistonni nisbatan taraqqiy etgan mintaqalarida shaharlar to'rining ko'payishi sobiq Ittifoqning dastlabki yillaridan boshlangan bo'lsa, viloyatimizda mazkur jarayon XX asrning 50-yillaridan keyin kuzatiladi. Bu davrda shakllangan shahar manzilgohlari rayon iqtisodiyotining kelajakdagi taraqqiyoti uchun asos bo'ladigan tabiiy boyliklarni o'zlashtirish evaziga tashkil topdi. Bunga misol sifatida 1958 yil vujudga kelgan, mintaqa sanoatining asosiy markazi Navoiy shahrini keltirish mumkin. Ma'lumki, o'tgan asrning 50-60 yillarida Markaziy Qizilqumdagi boy resurslarni o'zlashtirish boshlandi. Buning asosiy markazi sifatida Navoiy shahri qad rostladi va unga Karmana shahri qo'shib yuborildi. Bundan tashqari, o'rganilayotgan davrda "resurs" shaharcha sifatida Langar shaharchasi ham shakllandi. Shunday qilib, 1939-1959 yillar mobaynida viloyatda shaharlar soni o'zgarmay qoldi va 1959 yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra 4 ta shahar manzilgohi, shu jumladan 1 ta shahar va 3 ta shaharchani tashkil etdi.

1959 yilgi aholi ro'yxatidan keyin shaharlar tizimi ancha tez rivojlandi. XX asrning 60-yillarida Navoiy viloyati shahar joylari qatoriga Uchquduq va

Zarafshon qo'shildi. Navoiy – Uchquduq temir yo'lining qurilishi bilan temir yo'lining oxirgi stanstiyasi sifatida 1961 yilda Uchquduq shaharchasi paydo bo'ldi. Markaziy Qizilqumda rangli metall konlarining topilishi bilan Zarafshon shaharchasi (1967 y.) tashkil topdi.

Navbatdagi aholi ro'yxatlari oralig'ida (1970-1979 yillar), butun O'zbekistonda bo'lgani kabi, Navoiy viloyatida ham shaharlar soni tez ko'paydi. O'zbekiston Oliy Sovetining 1972 yilda aholisi 7 mingdan ortiq manzilgohlarga shahar maqomini berish to'g'risida qarori bunga asosiy sabab bo'ldi. Aynan ana shu huquqiy hujjat shaharlar sonining oshishiga turtki bo'ldi. Masalan, respublikada 1970 yil 124 shahar manzilgohi qayd etilgan bo'lsa, 1979 yilga kelib ular 59 taga ko'paydi va 183 tani hosil qildi. Vujudga kelgan shahar manzilgohlarining 78 foizini shaharlar tashkil etdi. Shaharchalar esa atigi 13 taga ortib, 95 taga yetdi (Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev A., 2002).

Navoiy viloyati shaharlar geografiyasida ham 1970-1979 yillarning o'z o'rni bor. Chunonchi, etmishinchi yillar davomida shahar joylar soni 4 taga ko'payib, 9 shahar manzilgohiga erishildi. Ko'rilayotgan davr oralig'ida viloyat shaharlar guruhiga quyidagi 3 shahar qo'shilib, ularning umumiy soni 4 tani tashkil etdi. Qaror chiqqan 1972 yilning o'zidayoq O'zbekiston rangdor metallurgiyasining markazi – Zarafshon shaharlar qatoriga kirdi. 1976 yil qadimiy Nurota shahri, oradan bir yil o'tib esa temir yo'l stanstiyasi Uchquduq shahar maqomini oldi. Shu bilan birga o'rganilayotgan davrda Qiziltepa, Tinchlik, G'ozg'on, Muruntov shaharchalari ham tashkil topdi. Ular orasida Qiziltepa tuman markazi, G'ozg'on va Muruntov "resurs" shaharchalar sifatida shakllangan edi. Xullas, 1970-1979 yillardagi aholi ro'yxatlari oralig'ida viloyat shahar manzilgohlarining soni 6 tadan 10 tagacha ko'paydi. Bu raqam O'zbekiston shahar joylarining 5,5 foiziga tengdir.

So'nggi ikki aholi ro'yxatlari oralig'ida Buxoro viloyati shaharlar to'rida keskin o'zgarishlar sodir bo'lmadi. 1979 yilda tuman markazi va temir yo'l bekati sifatida Qiziltepa shahar maqomini oldi.

1982 yil 20 aprelda Navoiy viloyatining tashkil etilishi bilan hozirgi viloyat hududi shakllandi. Shunday qilib, 1989 yilgi aholi ro'yxatiga binoan Navoiy viloyatida 10 ta shahar manzilgohi, jumladan, 5 ta shaharlar, 5 ta shaharchalar hisobga olindi. Navoiy viloyati shaharlari O'zbekiston jami shahar manzilgohlari 1989 yil 4,5 foizini tashkil etgan. Shu yili viloyat shahar manzilgohlarining soni bo'yicha respublikada Xorazm, Sirdaryo viloyatlaridan oldinda edi, xolos.

Mustaqillik yillarida viloyat shaharlar to'rlarining holati. 1989 yilgi aholi ro'yxatidan keyin Navoiy viloyati shaharlar to'rida 2 ta yangi manzilgoh paydo bo'ldi. Navoiy shahrining yo'ldoshlari – Malikrabot va Uchquduqning yo'ldoshi – Shalqar shaharchalar qatoridan joy oldi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning ko'pchilik tarmoqlarida ijobiy yutuqlarga erishildi, ammo shaharlar taraqqiyoti birmuncha sekinlashdi. Istiqlolning dastlabki 15 yilligida Buxoro viloyati yangi shahar manzilgohlari vujudga kelmadi. Faqatgina, 1998 yilga kelibgina Xatirchi tumanining markazi – Yangirabot shaharlar qatoriga qo'shilishi bilan viloyatning shaharlar soni bittaga oshdi.

Shundan so'ng, 2009 yilgacha shaharlar to'rida o'zgarish kuzatilmadi. Joriy yilda Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra viloyatdagi 39 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi (2-jadval). Ularni geografiyasiga e'tibor bersak, Uchquduqdan tashqari barcha tumanlardan vakillar borligini ko'rish mumkin. Eng ko'p shaharcha Qiziltepa (12 ta) va Xatirchi (10 ta) tumanlarida tashkil topdi. Shu bilan birga Navbahorda 5 ta, Nurota va Karmana tumanlarining har birida 4 tadan shaharchalar vujudga keldi. Ularni eng kam miqdori Tomdida bo'lib, faqatgina uning markazi – Tomdibuloq shaharcha sifatida ro'yxatga olindi. Mazkur shaharchalarni tuzilishi bilan Navoiy viloyatidagi shahar manzilgohlari 53 ta, ya'ni 6 shaharlar va 47 shaharchalardan iborat bo'ldi. Agar viloyat 2008 yil shaharlar soni jihatidan 11-o'ringa turgan bo'lsa, 2010 yil 10-o'ringa ko'tarildi.

2-jadval

Navoiy viloyatidagi “yangi shaharchalar” to'g'risida ma'lumot

T/r	Tumanlar	“Yangi shaharchalar”	Aholi soni, kishi
-----	----------	----------------------	-------------------

	nomi	nomi	hisobida
1.	Konimex	"Balaqaraq" shaharcha	546
2.	---- // ----	"Mamiqchi" shaharcha	2 005
3.	---- // ----	"Sho'rtepa" shaharcha	2 201
4.	Qiziltepa	"Husbiddin" shaharcha	2 297
5.	---- // ----	"Qalayn-Azizon" shaharcha	3 598
6.	---- // ----	"Baland G'ardiyon" shaharcha	2 707
7.	---- // ----	"G'oyibon" shaharcha	2 673
8.	---- // ----	"Oq soch" shaharcha	2 305
9.	---- // ----	"Vang'ozi" shaharcha	3 426
10.	---- // ----	"Oqmachit" shaharcha	2 510
11.	---- // ----	"Zarmitan" shaharcha	2 973
12.	---- // ----	"G'amxo'r" shaharcha	3 385
13.	---- // ----	"Uzilishkent" shaharcha	2 617
14.	---- // ----	"O'rtako'rg'on" shaharcha	2 847
15.	---- // ----	"Xo'jako'rg'on" shaharcha	2 095
16.	Navbahor	"Kalkonota" shaharcha	4 481
17.	---- // ----	"Saroy" shaharcha	1 501
18.	---- // ----	"Quyi Beshrabot" shaharcha	2 227
19.	---- // ----	"Keskanterak" shaharcha	3 537
20.	---- // ----	"Ijant" shaharcha	4 047
21.	Karmana	"Paxtaobod" shaharcha	1 944
22.	---- // ----	"Podkoron" shaharcha	2 434
23.	---- // ----	"S.Umarov" shaharcha	3 878
24.	---- // ----	"T. G'ofurov" nomli sh-cha	2 666
25.	Nurota	"Qizilcha" shaharcha	3 297
26.	---- // ----	"Temurqovuq" shaharcha	3 254
27.	---- // ----	"Chuya" shaharcha	2 591
28.	---- // ----	"Yangibino" shaharcha	2 357
29.	Tomdi	Tomdibuloq sh-chasi	5 110
30.	Xatirchi	"Jaloir" shaharcha	2 168
31.	---- // ----	"Jaloir" shaharcha	2 909
32.	---- // ----	"Polvontepa" shaharcha	1 982
33.	---- // ----	"Saroy" shaharcha	3 005
34.	---- // ----	"Tasmachi" shaharcha	4 680
35.	---- // ----	"Bog'ishamol" shaharcha	1 145
36.	---- // ----	"G'alabek" shaharcha	1 772
37.	---- // ----	"Paxtakor" shaharcha	1 991
38.	---- // ----	"Turkman" shaharcha	881
39.	---- // ----	"Yangi qurilish" shaharcha	1 542

Jadval Navoiy viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Navoiy viloyatida ham eng ko'p shaharlar qatori mayda shaharlardan (aholisi 10 mingga) iborat. Bu klassga respublikada 975 ta, Navoiy viloyatida esa 45 ta shahar manzilgohlari kirib, ular jami shahar manzilgohlari sonining mos holda, 81,3 va 84,9 foizini tashkil etadi (2014 y.). Ko'rinib turibdiki, klassifikatsiyaning quyi pog'onasiga shaharlarning asosiy qismi joylashgan. Tahlilni chuqurroq qilish maqsadida, quyi sinfni 3 guruhga ajratildi. Unga ko'ra aholisi 3 mingga, 3-5 ming va 5-10 ming aholisi bor shahar yoki shaharchalar (bunday tabaqalashtirish shaharlarni guruhlashda ham qo'llaniladi). Shu nuqtai nazardan qaraganda Navoiy viloyatida 29 ta aholisi 3 mingga, 13 ta 3-5 ming va 3 ta 5-10 mingli shaharlar mavjudligi qayd etiladi. Qo'shni Buxoro viloyatida esa mos holda 51, 8, 5 taga teng. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ikkala viloyatda ham eng ko'p shaharchalar aholisi 3 mingga bo'lgan toifaga tegishli. Bu holat hududni "cho'llik" xususiyatini aks ettiradi. Chunki, cho'l sharoitida aholi manzilgohlari u qadar yirik bo'lmaydi. Vaholanki, Andijon va Namangan kabi viloyatlarda yangi shaharchalarning yarmidan ortig'i 5-10 minglik qishloqlar o'rnida paydo bo'lgan. Demak, aholi joylashuvi va manzilgohlarni katta-kichikligiga tabiiy sharoit asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Kichik shaharlar (aholisi 10-20 ming k.) to'ri viloyatda u qadar rivojlanmagan. O'zbekistonda 124 ta, Navoiy viloyatida 3 ta bunday shaharlar bo'lib, ular respublika shahar manzilgohlarini 10,4, viloyatda 5,6 foizini tashkil etadi. Mazkur toifadagi shahar joylarida respublika bo'yicha 11,8 %, mintaqadagi shaharliklarni 9,0 foizi yashaydi. Ushbu toifaga Navoiy viloyatining tuman markazlari Qilitepa, Yangirabot va "resurs" shaharcha – Muruntov kiradi.

5-klassga aholisi soni 20-50 ming kishilik "yarim o'rta" shaharlar mansub bo'lib, ularning soni ham Navoiyda 3 tani tashkil etadi. Bunday shaharlarga, tuman markazlari – Nurota, Uchquduq va Karmana kiradi. Shu bilan tahlillar ko'rsatadiki, Navoiy viloyatida 6-klassga kiruvchi shaharlar qatori rivojlanmagan. Mazkur guruhga viloyatning ikkinchi sanoat markazi – Zarafshon shahri mansub.

7-klassga O'zbekiston bo'yicha 12 ta shahar mansub, ular orasida Navoiy shahri ham bor. Navoiy respublika shaharlari qatorida aholi soniga ko'ra 16-pog'onani egallaydi unda 131,0 ming kishi yashaydi (01.01.2013).

Maxsus ilmiy adabiyotlarda **Zipfa – Styuart qoidasi** mavjud bo'lib, u hudud shaharlarining bir tartibda to'g'ri joylanishini nazarda tutadi (Zanadvorov V.S., Zanadvorova A.V., 2003). Masalan, 2-shahar 1-shahar aholisining yarmini, 3-shahar uning 1/3, 4-si 1/4 qism aholisiga ega bo'lishi kerak va h.k. Biroq bu g'oya hayotda to'laligicha o'z isbotini topgani yo'q. Shunga qaramay, yuqoridagi qoida ma'lum ahamiyat kasb etadi. Navoiy viloyati hududida shaharlar ierarxiyasi bir me'yorda rivojlanmagan. Eng ko'p shaharlar pog'onasini aholisi 20 ming kishigacha bo'lgan kichik shaharlar tashkil etib, ular jami shahar manzilgohlarining 90,6 foizini hosil qiladi. Viloyat hududida kichik shaharlarning ko'pligi, uni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan unchalik rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Ierarxiyaning yuqori pog'onalariga chiqavergan sari shaharlar soni kamayib boradi. Agar viloyatda "yarim o'rta" shaharlar uchta bo'lsa, o'rta va katta shaharlar atigi bittadan.

Ma'lumki, har qanday mintaqada shaharlar to'rining, ya'ni hududiy urbanistik tarkibining (I.M.Maergoyz bo'yicha) rivojlanganligi u erdagi katta shaharlar soni bilan belgilanadi. Bu jihatdan O'zbekistonda Toshkent va Farg'ona viloyatlari eng yaxshi mavqega ega. Ularning har birida 3 tadan katta shaharlar vujudga kelgan (3-jadval). Respublikaning qolgan barcha viloyatlarida (Sirdaryo viloyatidan tashqari) faqatgina viloyat markazi katta shahar hisoblanadi. Bu esa mazkur viloyatlarning, jumladan Navoiy viloyatining ham shaharlar geografiyasini nisbatan sust rivojlanganligini aks ettiradi.

3 – jadval.

O'zbekiston yirik shaharlari va viloyat markazlari aholi soni (2013 y)

T/r	Shahar nomi	Aholi soni, ming kishi	Mintaqa aholisidagi ulushi, foiz hisobida	
			jami aholiga nisbatan	shahar aholi- siga nisbatan
1.	Toshkent*	2340,9	7,8	15,2
2.	Namangan	468,0	19,0	29,8

3.	Samarqand	477,0	14,1	36,3
4.	Andijon	398,2	14,4	27,4
5.	Nukus	286,5	16,7	33,7
6.	Buxoro	247,5	14,3	37,1
7.	Qarshi	244,1	8,6	19,9
8.	Qo'qon	222,6	6,7	11,7
9.	Farg'ona	261,4	7,8	13,7
10.	Marg'ilon	186,3	5,6	9,7
11.	Chirchiq	147,5	5,5	11,1
12.	Jizzax	161,3	13,4	28,1
13.	Urganch	136,7	8,3	24,9
14.	Angren	142,6	5,3	10,7
15.	Termiz	135,7	6,0	16,6
16.	Navoiy	131,0	14,7	29,4
17.	Olmalik	119,1	4,4	9,0
18.	Guliston	63,2	8,4	19,4

IZOH : *- Toshkent shahri O'zbekiston Respublikasiga nisbatan olingan.

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Aksariyat viloyat markazlari o'z mintaqalari urbanistik tizimida etakchi hisoblanadi. Sababi ular viloyatdagi yagona katta shahar sanalib, viloyat shahar aholisining asosiy qismi shu yerda to'plangan. Navoiyga viloyatdagi jami shaharliklarning 29,4 foizi to'g'ri keladi (3-jadvalga qarang).

Shaharlar klassifikatsiyasida “birinchi” va “ikkinchi” shahar tushunchalari mavjud. Masalan, Navoiy viloyatining 1-shahri uni markazi Navoiy shahridir. Aholi soni bo'yicha ko'ra viloyatning ikkinchi shahri – Zarafshon hisoblanadi. Hozir Zarafshon shahriga 62,4 ming kishi yashaydi. Shahar nafaqat aholi soniga ko'ra balki iqtisodiy – ijtimoiy sohalar, xususan sanoatning rivojlanganligi borasida ham ikkinchi markazdir.

Navoiy viloyati shaharlarining funkstional tarkibi ham o'ziga xosdir. Bu erda bir funkstiyali va ko'p funkstiyali shaharlar ham mavjud. Viloyat markazi – Navoiy shahri ko'p funkstiyali shaharlar qatoriga kiradi. Ayni paytda uni viloyatning eng yirik sanoat markazi sifatida ko'p tarmoqli sanoat markazlari qatoriga ham kiritish mumkin. Chunki shaharda ko'plab sanoat tarmoqlariga tegishli korxonalar joylashgan. Shuningdek, Navoiy shahrining boshqaruv funkstiyasini ham aytib o'tish joiz. Agar O'zbekiston shaharlari bo'yicha

boshqaruvda 8 % aholi band bo'lsa, Navoiy shahrida ushbu ko'rsatkich 4,6 foizdan ortiqroqni tashkil etadi.

Viloyatning sanoat markazlariga (Navoiy shahridan tashqari) Zarafshon, Uchquduq shaharlari va Muruntov, G'ozg'on singari "resurs shaharlar"¹ kiradi. Ushbu shaharlarning barchasini tor ixtisoslashganligi diqqatga sazovordir. Masalan, Zarafshon va Muruntov – rangli metallurgiya, G'ozg'on – qurilish materiallari sanoatiga ixtisoslashgan.

Transport markazlari qatoriga Navoiydagi – Tinchlik va Shalqar shaharchalari mansub. Shaharchalarning vujudga kelishiga ham transport omili sababchi bo'lgan. Ikkala shaharcha ham 1962 yilda Navoiy – Uchquduq temir yo'lining bekatlari sifatida tashkil topgan edi. Ayni vaqtda ular viloyatning asosiy transport tugunlaridan biridir. Ayniqsa, 2001 yilda Uchquduq – Sulton Uvays – Nukus temir yo'lining qurilishi bilan mazkur shaharchalarning transport geografik o'rni yanada yaxshilandi.

Navoiy viloyatida ham juda ko'p shaharlar agroindustrial yo'nalishga ega, ya'ni ularda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari mavjud. Bunday shaharlar guruhiga birinchi galda Qiziltepa, Yangirabot, Karmanaga o'xshash shaharlar mansub. Ayni paytda ushbu shaharlar o'z nomlari bilan ataluvchi tumanlar markazlari hamdir.

¹ Respublikamizda "resurs shaharlar" muammosi bilan Z.H.Rayimjonov shug'ullangan (1992)

shaharchalar hisoblanib, ularning aksariyati aholisi 20 mingga bo'lgan kichik shaharlar sirasiga kiradi. Tuman markazlari orasida Nurota va Uchquduqning demografik salohiyati nisbatan baland, bu shaharlarning har birida 25-30 ming kishi yashaydi. Ayni paytda ma'muriy markazlarning tuman aholisidagi ulushi ham turlichadir. Barcha mintaqalar singari Navoiyni ham sanoatlashgan hududlarida shahar aholisining ulushi katta. Ayniqsa Uchquduq tumani iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan nafaqat viloyatda balki respublikada etakchi mavqega ega.

Iqtisodiyotning barqarorligi, o'z navbatida, urbanizatsiya darajasini rivojlanishiga olib kelgan. Buni Uchquduqni shaharlashuv darajasini yuqoriligi ham isbotlab turibdi. Tumanni urbanizatsiyalashuv ko'rsatkichi viloyatda eng yuqori bo'lib 77,2 foizga teng. Bu yerda Uchquduq tumanini qo'riq erlarni o'zlashtirish evaziga yaqinda tashkil topgani tufayli unda qishloq joylarini etarlicha takomillashmaganligini ta'kidlash joiz. Xuddi shunga o'xshash vaziyatni Nurota va Tomdi tumanlari misolida ham ko'rish mumkin. Mazkur tuman aholisining 1/3 qismi ularning markazida joylashgan. Qolgan ma'muriy markazlarning barchasida tuman aholisini 20 foizi ham to'g'ri kelmaydi. Hatto Navbahor tuman markazida - Beshrabot shaharchasida tuman jami aholisining 2,2 foizi yashaydi (4-jadval). Bu esa kelajakda ana shunday tumanlarda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishni va shu orqali shaharlar taraqqiyotini jonlantirishni taqozo etadi.

Umuman olganda, Navoiy viloyati shaharlarini funkstional tipologiya doirasida ko'radigan bo'lsak, eng ko'p qatorni tuman markazlari tashkil etadi. Viloyatdagi 53 ta shahar manzilgohining 8 tasini, ya'ni 15,1 foizi tuman markazlaridan iborat. Bunday shaharlar yoki "kichik poytaxtlarning" barchasida (Uchquduq va Tomdidan tashqari) agroindustrial yo'nalishni ustun turishini ta'kidlab o'tish joizdir. Shuningdek, ushbu guruhdagi shaharlarning yana bir o'ziga xos xususiyati – ularning qishloq joylariga yaqinligi va, binobarin, aholisining bir qismini bevosita qishloq xo'jalik tarmoqlari bilan bandligidir.

4 – jadval.

**Navoiy viloyati qishloq tumanlari ma'muriy markazlari aholisi
(01.01.2013 yil holatida)**

T/r	Tuman nomi	Tashkil topgan yili	Tuman aholisi (ming kishi.)	Ma'muriy markazi	Aholi soni	
					Ming kishi	Tuman aholisiga nisbatan foizda
1.	Karmana	29 IX 1926 y.	107,3	Karmana	21,5	20,0
2.	Konimex	29 IX 1926 y.	29,4	Konimex	5,5	18,7
3.	Navbahor	12 III 1980 y.	99,2	Beshrabot	2,2	2,2
4.	Nurota	29 IX 1926 y.	83,1	Nurota	32,3	38,9
5.	Tomdi	3 VII 1927 y.	15,4	Tomdibuloq	5,1	33,1
6.	Uchquduq	25 III 1982 y.	34,7	Uchquduq	26,8	77,2
7.	Xatirchi	29 IX 1926 y.	135,2	Yangirabot	12,2	9,0
8.	Qilitepa	9 II 1935 y.	176,5	Qilitepa	17,0	9,6

Jadval Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2009 yilda vujudga kelgan yangi shaharchalar asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Shu sababdan ularni A.S.Soliyev "agroshaharchalar" deb ta'riflaydi (2-jadvalga qarang). Bunday shahar joylarining rivojlanishi ham, tuman markazlari singari, kichik ma'muriy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati bilan bog'liq. Ular asosan aholisi 2000 kishidan ortiq yirik qshloqlar o'rnida vujudga keldi.

1.3. SHAHARLARNING DEMOGRAFIK VAZIYATI VA MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI

1979 yilgi aholi ro'yxati davrida hozirgi Navoiy viloyati hududida 10 ta shahar manzilgohlari (shu jumladan, 5 ta shahar va 5 ta shahachalar) mavjud edi.

Ulardagi jami aholi soni 184,6 ming kishini tashkil etgan (4 – jadval). 1982 yil 20 aprelda O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy tuzilishida yangi – Navoiy viloyati tashkil etildi. Sobiq Ittifoqning so‘nggi 10 yilligida viloyat shaharlarining aholi doimiy o‘shishda davom etdi. 1979-1989 yillar mobaynida Navoiy viloyat hududidagi barcha shaharlarning aholisi soni ko‘payib, shaharliklar soni 246,2 ming kishini tashkil etdi. Viloyatdagi jami shaharliklarning 42,8 foizi Navoiy shahriga to‘g‘ri keldi. Viloyatning bosh shahri – Navoiyda aholi soni mazkur davrda 1,3 marta yoki 126,8 foizga oshib, 100 minglik chiziqni “kesib o‘tdi”.

Mustaqillik yillarida Navoiy viloyati shahar manzilgohlari va ularning soni o‘ziga xos rivojlanish yo‘lidan bordi. 2000 yilgacha garchand shahar manzilgohlari soni atigi 2 ta (Malikrabort va Shalqarga) oshgan bo‘lsada, viloyat shahar aholisining miqdori oshib bordi, ya‘ni shaharliklar soni **intensiv** ravishda ko‘paydi. Shahar aholisining intensiv ko‘payishi shaharliklar miqdorini faqat mavjud shahar va shaharchalar aholisi hisobiga ko‘payishini anglatadi. Agar 1989 yil Navoiy viloyati shahar joylarida 246,2 ming kishi yashagan bo‘lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 316,7 ming kishiga yetdi (5– jadval).

Vazirlar Mahkamasining yangi shaharchalarni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlarining chiqishi bilan keyingi besh yilda Navoiy viloyatining shahar aholisi 117,0 ming kishiga ortdi. Agar 2008 yilda viloyatdagi shaharliklar soni 327,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2013 yilda kelib ularni soni 444,8 mingga etdi. Biroq, istiqloлга erishgandan so‘ng mamlakatimizning barcha joylarida, ayniqsa shaharlarda aholi ko‘payishi sezilarli darajada sekinlashdi.

5 – jadval.

Navoiy viloyati shahar manzilgohlarida aholi sonining o‘zgarishi

T/r	Shahar va shaharchalar nomi	Aholi soni, ming kishi				
		1979	1989	2000	2008	2013
1	Navoiy	83,1	105,4	140,9	124,6	131,1
2	Zarafshon	35,3	47,4	53,3	59,0	62,3
3	Nurota	15,6	20,9	26,6	29,1	32,3


4	Uchquduq	20,8	24,4	26,1	22,8	26,8
5	Yangirabot	—	11,4	14,9	16,3	17,0
6	Qiziltepa	7,7	9,1	12,0	12,4	12,3
7	Karmana*	—	—	—	22,3	21,5
8	Konimex*	5,7	7,6	9,5	7,6	5,5
9	Muruntov*	6,7	9,3	11,3	10,5	10,7
10	G'ozg'on*	3,6	4,5	5,4	6,4	6,5
11	Langar*	3,4	3,7	4,8	5,1	3,0
12	Tinchlik*	2,7	2,4	3,1	3,3	3,3
13	Malikrabot*	—	—	7,2	7,6	6,5
14	Shalqar*	—	—	1,6	0,8	2,4
	30 ta yangi shaharchalar	—	—	—	—	103,6
	Jami:	184,6	246,2	316,7	327,8	444,8


Izoh: * shaharchalar. Jadval Navoiy viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jumladan, qadimiy Karmanada 2008 yil 22,3 ming aholi mavjud bo'lsa, 2013 yilga kelib bu raqam 0,8 mingga kamayib, 21,5 ming kishiga tushib qoldi. Hatto ayrim shahar manzilgohlarida aholi sonining nisbatan ko'p kamayotganligini guvohi bo'lamiz. Bunday holatni Konimex singari cho'l shaharlari misolida ko'rishimiz mumkin (5-jadvalga qarang).

Istiqlolning dastlabki yillarida O'zbekistonning aksariyat mintaqalarida urbanizastiya darajasi pasayib borgan bo'lsa, yangi shaharchalarni vujudga kelishi bilan shaharlashuv ko'rsatkichi yana yaxshilandi. Istiqlolga erishmasdan oldin viloyat jami aholisi sonida shaharliklar salmog'i 41,3% (1989 yil) bo'lgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu raqam 49,9 foizgacha ko'tarildi. Xuddi shu davrda respublika shahar aholisi 10,5 % oshib, 51,2 foizni, qo'shni Buxoro viloyatida esa 4,0 % ko'tarilib, 38,6 foizni tashkil etdi (2-rasm). Bunga asosiy sabab – mamlakatimizda olib borilgan yangi urbanistik siyosat tufayli shaharlar geografiyasining kengayishidir.

2 – rasm. **Buxoro va Navoiy viloyatlarida aholining shahar va qishloq joylari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)**





Tabiiy ko'payish turli hudud va mintaqalarda turlicha ko'rinishga ega. Aholining tabiiy harakati Navoiy viloyatida ham demografik rivojlanishning asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Aholining tabiiy harakatida tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Navoiy viloyati shahar joylarida aholining tabiiy harakati turli davrlarda turlicha bo'lgan. Ayniqsa, istiqlol davrida viloyat aholisining tabiiy harakatida o'ziga xos davr boshlandi. Bu yillarida aholining tabiiy ko'payish ko'rsatkichi kamayishda davom etdi. Xususan, mazkur jarayon shaharlarda sezilarli bo'ldi.

Demograf olimlar B.S.Urbanis va V.A.Borisov hududlarni tug'ilishning umumiy koeffisienti bo'yicha 4 guruhga ajratgan. Unga ko'ra tug'ilish umumiy koeffisienti 16 promilledan kam bo'lsa – tug'ilish darajasi past; 16-24 – o'rta; 25-29 – yuqori; 40 promilledan baland bo'lsa – tug'ilish darajasi juda yuqori hisoblanadi.

Navoiy viloyatining demografik jarayonlari to'g'risida ma'lumot

№	Shahar va tumanlar nomi	Demografik holat (xar 1000 kishiga nisbatan)											
		O'lim		Tug'ilish		Tabiiy o'sish		Kelganlar soni		Ketganlar soni		Migrastiya saldos	
		2008 yil	2009 yil	2008 yil	2009 yil	2008 yil	2009 yil	2008 yil	2009 yil	2008 yil	2009 yil	2008 yil	2009 yil
1	Navoiy shahri	5,1	5	19	18,4	13,9	13,4	24,5	24,3	28,5	23,6	-4,0	0,7
2	Zarafshon shahri	4,7	5,1	22,8	21,6	18,1	16,5	44,6	35,2	42	33,3	2,6	1,9
3	Karmana tumani	5,3	5,2	18,3	21,1	13,0	15,9	7	7,7	10,1	8,4	-3,1	-0,7
4	Konimex tumani	5,3	5,3	20,1	21,8	14,8	16,5	9,4	8,5	29,1	26,6	-19,7	-18,1
5	Qiziltepa tumani	4,3	4,6	21,1	21,2	16,8	16,6	7,6	8,5	8,8	8,7	-1,2	-0,2
6	Navbahor tumani	4,7	4,4	23,4	22,4	18,7	18	10,5	10	11,3	10,0	-0,8	0,0
7	Nurota tumani	5,1	4,3	25,9	24,8	20,8	20,5	5	4,3	9,2	10,0	-4,2	-5,7
8	Tomdi tumani	4,2	3,4	16,5	14,4	12,3	11	4,6	6,3	35,8	22,7	-31,2	-16,4
9	Uchquduq tumani	4,9	4,9	21,7	23,1	16,8	18,2	24,4	27,1	47,1	38,8	-22,7	-11,7
10	Xatirchi tumani	4,5	4,2	22,5	22,3	18,0	18,1	9,3	8,1	10,8	10,3	-1,5	-2,2
	Viloyat bo'yicha	4,8	4,7	21,4	21,4	16,6	16,7	14,5	13,6	18,9	16,1	-4,4	-2,5

Jadval Navoiy viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Navoiy viloyatining mehnat bozori to'g'risida ma'lumot

№	Shahar va tumanlar nomi	01.01.10 y holatiga aholi soni	mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni	ishlayotgan o'smirlar va pensionerlar soni	iqtisodiy faol aholi	iqtisodiyotda band aholi soni	jami ishsizlar soni	mehnat organlariga murojaat qilganlar soni	ish bilan ta'minlangan ishsizlar soni	ruyxatga olingan ishsizlar soni
		m.kishi	m.kishi	m.kishi	m.kishi	m.kishi	kishi	kishi	kishi	kishi
1	Navoiy shahri	131,0	94,2	92,4	115,9	117,3	1764	3242	2883	263
2	Zarafshon shahri	72,4	52,5	37,6	65,6	64,0	1186	3098	2702	132
3	Karmana tumani	101,1	60,9	55,9	60,3	60,3	185	2726	2339	260
4	Konimex tumani	37,6	21,5	21,2	18,4	18,5	315	1800	1591	194
5	Qiziltepa tumani	120,0	63,2	66,8	65,9	56,0	712	4113	3737	296
6	Navbahor tumani	87,8	45,3	45,1	58,4	38,4	878	3036	2673	480
7	Nurota tumani	80,5	50,5	47,9	58,4	48,4	519	3155	2737	476
8	Tomdi tumani	22,1	13,2	12,4	24,1	13,2	93	1239	1128	307
9	Uchquduq tumani	36,9	27,9	21,1	21,2	32,9	571	2330	2066	398
10	Xatirchi tumani	161,9	83,2	79,7	85,3	71,7	447	5528	4955	784
	Viloyat bo'yicha	851,3	512,4	480,1	573,5	520,7	6670	30267	26811	3590

Jadval Navoiy viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ana shu bo'linish bo'yicha Navoiy viloyati shahar manzilgohlari O'zbekistonning barcha mintaqalari kabi tug'ilish darajasi o'rtacha (16-24) bo'lgan hududlar qatoriga kiradi.

Viloyat aholisining demografik koeffitsientlari uning hududlari bo'yicha bir xil me'yorda emas. Masalan, 2009 yilda tug'ilish har 1000 kishi hisobida viloyat bo'yicha 21,4 kishini, Navoiy shahrida – 18,4, Zarafshonda – 21,6, Tomdida – 14,4, Uchquduqda – 23,1 kishini tashkil etdi.

Xuddi tug'ilish singari tabiiy ko'payish, o'lim, aholi harakatlarining miqdori ham viloyat shahar va tumanlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Umuman olganda, viloyatning demografik jarayonlari to'g'risida 6 – jadvaldan to'liq ma'lumot olish mumkin.

IKKINCHI BOB. NAVOIY VILOYAT SHAHARLARIGA IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIF

2.1. VILOYAT SHAHARLARINING QISQACHA IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIF

NAVOIY SHAHRI – shu nomli viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning markaziy qismida, Zarafshon daryosi vodiysida, viloyatning sharqiy chekkasida joylashgan. Xalqaro va respublika ahamiyatidagi temir yo'l va avtomobil yo'llarining o'tganligi shahar rivojlanishiga juda katta turtki bergan. Navoiyda yanvarning o'rtacha harorati 0,4° ni, iyuldagi esa 28,3° ni tashkil etdi.

Shahar maydoni 55,1 km².

Aholisi 131,1 ming kishi (2013 yil; 2003 y.—145 ming; 1995 y. -112,7 ming; 1974 y.-80 ming; 1960 y. — 20 ming kishi). 2003 yilga nisbatan Navoiy shahri aholisining sonini kamayishiga sabab Karmana shaharchasining alohida ma'muriy birlik sifatida ajralib chiqishidir.

Navoiy Zarafshon vodiysidagi tez o'sayotgan, yosh industrial shahar, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy nomiga qo'yilgan. Bu haqida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir: “Ko'hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz haqida gapirganda, birinchilardan bo'lib ulug' mutaffakkir shoir Alisher Navoiy hazratlari ko'z oldimizga keladi. Chunki bu mo'tabar zot millatimiz sharafiga ko'klarga ko'targan, yurtimiz dovrug'ini butun olamga tarannum etgan.

Sizlar ana shunday buyuk inson nomi bilan atalgan viloyatda yashayotganingiz bilan har qancha iftixor etsangiz arziydi...”.¹

Darhaqiqat, buyuk mutafakkir nomiga qo'yilgan ushbu shahar qisqa davrda juda tez rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Zarafshon daryosining yaqinligi, yirik qishloq xo'jaligi rayonining markazida joylashganligi, transport bilan yaxshi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida (1998 yil) so'zlagan nutqid.

ta'minlanganligi shaharning tez o'sish omili bo'ldi. Shahar Markaziy Osiyodagi yirik elektroenergetika va kimyo sanoati markaziga aylandi.

Viloyat sanoat korxonalari yalpi mahsulotining ko'pchilik qismi Navoiy shahridagi akstiyadorlik jamiyatlari, yirik sanoat korxonalari hamda davlat va xususiy korxonalarda ishlab chiqariladi. Shahar sanoat tarmoqlarida elektr quvvati, mineral o'g'itlar, ip hamda ipak gazlamalar ishlab chiqarilmoqda. «Navoiyazot» ishlab chiqarish birlashmasi, elektr kimyo zavodi, Navoiy konchilik-metallurgiya, un, non kombinatlari, Navoiy issiqlik elektr stanstiyasi, «Kizilqumstement» korxonasi, paxta tozalash, sut, ipak qurti zavodlari, oziq-ovqat va mahalliy sanoat muassasalari bor. Sanoat, transport va qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlaydigan bazalar, maishiy xizmat ko'rsatish kombinati hamda hunarmandchilik tarmoqlari ishlab turibdi. Shaharda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda qurilgan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Shulardan «Agama», «Zerispark» korxonalari samarali ishlamoqda. Shahar orqali Uchquduq, Buxoro, Nukus shaharlariga boruvchi temir yo'llar o'g'gan. Navoiy shahrida 20 ga yaqin yo'nalishda avtomobil transporta qatnaydi. Erkin industrial iqtisodiy zonani tashkil etilishi bilan Navoiy aeroporti xalqaro aeroport maqomiga ega bo'lib, u hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan havo yo'llari orvali bog'langan.

Shahar viloyatning bosh ijtimoiy – madaniy markazi hisoblanadi. Navoiyda 2 oliy o'quv yurti (Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat konchilik instituti), akademik listey, 25 umumiy ta'lim makgabi, 3 «Mehribonlik uyi (shundan 2 tasi oilaviy), 8 kasb-hunar kolleji, 3 maxsus maktab internati (shundan 1 tasi nogironlar uchun), biznes maktabi, madaniyat saroyi, madaniyat va istirohat bog'lari, Yosh tomoshabinlar teatri, 8 jamoat kutubxonasi, stadion, suzish havzasi, 10 kasalxona, 5 poliklinika, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazi, 7 tibbiy dispanser faoliyat ko'rsatadi.

Hozirgi paytda Navoiy shahri hududida 39 sport va madaniyat saroylari, 20 maktab, 2 ta bolalar ijodiyot uylari, 2 ta musiqa maktabi faoliyat ko'rsatmoqda.

Navoiy – dunyodagi cho'lli hududlarda tabiiy, iqlimiy va milliy an'analarni hisobga olib qurilgan go'zal shaharlardan biridir. Shahar XX asrning 50-60

yillarda yagona bosh plan asosida issiq iqlim, milliy an'analarni hisobga olgan holda qurilgan. Natijada, cho'l sharoitida mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda go'zal – Navoiy qad rosladi. Ajoyib shaharsozlik yutuqlarini o'zida mujassamlantirgani bois, Navoiy o'tgan asrning 70-yillarida Xalqaro darajadagi Patrik Aberkrombe mukofoti bilan taqdirlangan.

Shamshod qadlarini tik tutgan uch o'zbek qizi suv to'latilgan ko'zalarni ko'targancha bitta-bitta yurib ketishyapti. Mazkur haykallarning vazmin, ulug'vor qiyofasi bamisoli cho'llarga jon kiritish uchun hayot to'lqinlari bilan oqib ketayotgan uch azamat daryoni eslatadi.

Favvora o'zini qurshab turgan joy muhiti bilan shunday bir mushtaraklik hosil etganki, go'yo u zamonaviy mavzudagi milliy badihadek...

Shundan so'ng, suv mavzui bevosita davom etib, qo'shni mo'jaz mavze ichkarisiga o'tadi. U yoqda hovuzlar, ariqlar, zovurlar el-yurt xizmatida "kamarbasta" – goh shahar va turarjoylar uchun shunchaki bezak, ko'rk bag'ishlasa, goh sug'orish, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish maqsadlarida foydalanilmoqda.

Nafosat mavzuining bundan keyingi rivoji "Shimoliy bog" ichkarisida davom etadi. Shohlari har tomonga quloq otgan bahaybat chinorlar ostida, sun'iy ko'l sohillarida, ko'm-ko'k o'tloqzorlar ichkarisida anvoyi gullar qiyg'os ochiladigan chamanzor qo'ynida, shildirab oqqan arig'u shovullab otilgan favvoralar orasida choyxonalar, qiroatxonalar, hordiq chiqarishga, shovqinsiz o'yinlarga mo'ljallangan inshootlar mavjud. Shaharning bosh maydonidan boshlab, oxiri shu yerga kelib tugaydigan xiyobonida Alisher Navoiyga haykal o'rnatish mo'ljallangan. Bu haykal Rudakiy, Umar Xayyom, Nizomiy singari buyuk siymolar haykallari saf tortgan va yaqin kelajakda barpo etilishi ko'zda tutilgan "She'riyat bog'i" ning asosi hisoblanadi.

Shahar ko'rkini ochish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan monumental badiiy loyihaning tasdiqlangan rejalari ana shulardan iborat. Me'morlar hamda quruvchilarning qattiq ijodiy mehnatlari, davlat – hokimiyat tashkilotlarining doimiy rahbarligi va muttasil yordamlari bilan, qurilish

jarayonining aniq tashkil etilishi tufayli, qisqa muddatlarda, og'ir tabiiy – iqlimiy sharoitda yangi Navoiy shahri bunyod topdi.

Vatanimiz shaharsozligining maskur namunasi chet el me'moriy matbuotlarida keng yoritildi. Xalqaro me'morlar uyshmasining atoqli arbobi fransuz Piyer Vago Navoiy shahri haqida shunday yozadi: "Ilgari qumloq va toshloqdan iborat bo'lgan joylarda tilsim bilan vujudga kelgan bu shahar g'oyat qisqa muddatlarda qurib bitkazildi. Bu ijodiy jasorat me'mor va quruvchilar duch kelgan, ular bartaraf etgan og'ir vazifalar, qiyinchiliklarni to'g'ri anglay olgan kishilarda hurmat tuyg'usini uyg'otmasdan qolmaydi".

Bu ijodiy yutuqlar uchun me'mor va quruvchilar guruhi – mualliflar: A.B.Korotkov, V.N.Ivanov, I.B.Orlov, N.I.Simonov va muhandis - konstruktor G.P.Smorodinlar Davlat mukofoti hamda me'morlarning Xalqaro uyushmasi tomonidan Patrik Aberkrombi sovrini bilan taqdirlandilar.

Bir vaqtlar buyuk Alisher Navoiy orzu qilgan go'zal maqsadlar bugun qaytadan chinakamiga ro'yobga chiqdi. Qudratli sanoat sohibi - bu navquron shahar tobora keskin sur'atlarda o'smoqda. Ulug' bobokalonimiz nomi bilan yuritiladigan bu shaharning uncha uzoq bo'lmagan tarixi qanchalik nafis bo'lsa, kelajagi o'n chandon go'zaldir. Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligi munosabati bilan shaharda Navoiy haykali o'rnatildi (2001). 2005 yil 1 dekabrda «Navoiy» shahar gazetasi nashr etilmoqda.

Navoiy zaminida qadimdan mashhur allomalar, shoir va faylasuflar, adib va muhaddislar, mohir xattot va tarjimonlar yashab o'ggan. Karminiy taxallusi bilan ijod qilgan bir iecha o'nlab ijodkorlarning nomlari ma'lum. Shulardan Abu Abdulloh Muhammad ibn Zav' al Karminiy, Abu Hamid Ahmad ibn Lays al Karminiy (996 y.), Al Muntasir ibn Muhammad al Karminiy va boshqalar. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Zav' al Karminiy Qur'onga tafsir bitishi bilan birga arab, fors she'riyati nazariyasini ishlab chiqqan, ilk marta arab, fors, turk maqollarini qiyosiy o'rgangan. Najmiddin Abulvafo al-Bo'zjandiy (IX asr), Zabebo as-Samarqandiy (XVI asr) Karmanada tug'ilib boshqa shaharlarda ijod etganlar. Shuningdek, shoirlar: Shayx Pahlavon Muhammad G'olib (XVIII asr), Mavlono

Dilkash Tanburiy (XIX – XX asr boshlari), Shayx Muhammad Hasan (1823-1921) va boshqalar shu yurt farzandlaridir.

ZARAFSHON SHAHRI mamlakatimizning markaziy qismida, Qizilqum sahrosida joylashgan. Zarafshonning geografik o'rnini $41^{\circ}35'$ sh.k. va $64^{\circ}15'$ shq. uz. ga to'g'ri keladi. Shahar markaziy Qizilqumning eng baland tog'i hisoblangan – Tomditog'ning (mutloq balandligi 974 m) shimoli-g'arbiy qismida vujudga kelgan.

Zarafshon shahri iqlimi uni atrofidagi Qizilqum cho'li iqlimidan biroz pastligi bilan ajralib turadi. Qishda shaharda havo harorati ancha past bo'ladi. Yanvarning ko'p yillik o'rtacha harorati $-4,1$, $-7,8^{\circ}$ ni tashkil etadi, eng past harorat -31 , -34° ga tushadi. Yoz esa issiq. Iyul oyining ko'p yillik o'rtacha havo harorati $+30$, $+31^{\circ}$ ga teng. Eng yuqori harorat 46° ga boradi. Yillik yog'in miqdori 70-100 mm atrofida. Zarafshon O'zbekistonning bevosita cho'l zonasida joylashgan aholi soniga ko'ra eng katta shahridir. 01.01.2013 yil holatida shahar aholisi soni 62,3 ming kishini tashkil etadi.

Zarafshon janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon pasayib boradi. Uning o'rtacha balandligi 300-350 m dir. Shahar atrofi relefining asosiy shakllari eol qumliklari, pushtasimon qum tepalari (nisbiy balandligi 4-15 m, ayrim yerlarda 25-30 m gacha yetadi), past tog'lar atrofidagi prolyuvial shleyflar, platolardan iborat. Inson xo'jalik ta'siri tufayli ushbu relyef shakllari o'zining tabiiy holatini o'zgartirgan.

3 – rasm. Zarafshon shahriga kirish joyi



4 – rasm. Zarafshon shahri ko'rinishining bir qismi



Shahar hududi va uning yaqin atroflarida cho'l qumli tuproqlar, qoldiq tog'lar shleyflarida sur - qo'ng'ir tuproqlar, o'zlashtirilgan joylarda vohta tuproqlari tarqalgan. Bu tuproqlar kam hosil, ularda chirindi miqdori 0,4-0,5 % dan oshmaydi. Zarafshonda tabiiy holda uzoq davom etadigan jazirama quruq yoz sharoitiga moslashgan kserofit, psammofit va efemer o'simliklari o'sadi.

Bahorda yer yuzasi efemer va efemeroidlardan – rang, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, lolaqizg'aldoq, chuchmoma, kovrak kabi o'simliklar bilan qoplanib, cho'lga o'xshamay qoladi. Lekin kunlarning isishi bilan efemer va efemeroidlar sarg'ayib qurib qoladi, psammofit va kserofit o'simliklar esa o'z vegetastiyasini davom ettiradilar.


Sur qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan qoldiq tog'larda va ularning etaklarida shuvoq, burgan, tereskan, toshburgan, saksovul, pastqam joylarda qora saksovul, yulg'un, baliqko'z, sarsazan, qorabaraq, shoxiloq va boshqa bir yillik sho'ralar o'sadi.

Hayvonlari O'rta Osiyo cho'llariga xos bo'lgan vakillardan iborat. Garchi shaharning o'zlashtirilgan qismlari katta hududlarni egallasada, unda ba'zan cho'l hayvonlari – kemiruvchilardan ingichka oyoqli yumronqoziq, qum sichqoni, shalpangquloq, qo'shoyoqlar, toshbaqa, tipratikan, sudralib yuruvchilardan dumaloq bosh kaltakesak, agama, echkamar, o'qilon, sutemizuvchilardan – quyon, hasharotlardan esa chayon, qoraqurt, falanga, chigirtka, qushlardan - ko'k kaptar, musicha, mayna, dala chumchug'i va boshqalar uchraydi.

Shahar atrofidagi joylar tabiiy boyliklarga boy. Foydali qazilmalari (oltin, uran, fosforit, grafit va boshqalar), iqlim resurslari, yaylovlari, er osti suvlari yurt boyligidir.

Yer osti qazilma boyliklarining katta zahiralarini asosida Zarafshonda yirik sanoat korxonalari, konlar faoliyat ko'rsatmoqda va bular mamlakatimiz iqtisodiyotining yuksalishida munosib ulush qo'shmoqda.

НАВОИЙ ВИЛОЯТИ, ТАВИЙ ХАРИТА



Zarafshon shahrida ko'plab korxona va tashkilotlar, boshqarmalar o'z faoliyatini yuritmoqda. Jumladan: 41 ta sanoat korxonalari, 386 ta kichik biznes sub'ektlari, 3 ta asosiy savdo tarmoqlari, 39 ta qurilish tashkilotlari. 18 ta transport tashkilotlari. Shaharning asosiy tayanch korxonasi Navoiy KMK ning Markaziy Kon boshqarmasidir.

Uning tasarrufida "Muruntog'" kon 2-GMZ, OUIS koni, Qizilqum fosfort majmuasi va boshqa bo'linmalar mavjud. Shular bilan bir qatorda Navoiy KMK tasarrufiga kiruvchi Zarafshon qurilish boshqarmasi ham faoliyat yuritmoqda.

NUROTA SHAHRI — Navoiy viloyati *Nurota tumanidagi* shahar (1976 yildan). Oqtog'ning etagida, 524 m balandlikda joylashgan. Tuman markazi. Yaqin temir yo'l stansiyasi — Tinchlik (85 km). Viloyat markazi Navoiy shahridan 85 km. Aholisi 32,3 ming kishi (2013 yil).

Nurota O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri. Shahar dastlab X asrda Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida «Nur» shaklida (shu yerdagi mashhur «Nur» chashmasi nomidan) tilga olingan. Mahalliy rivoyatlarda shaharning paydo bo'lishi Aleksandr Maqedonskiy davriga borib taqaladi. Keyinchalik shahar bu erda yashab o'tgan mashhur Shayx Abulhasan Nuriy (IX asr) sharafiga «Nurota» deb atala boshlagan. Nurota ustidan Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i o'tgan. U o'tmishda harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lib, yirik savdo markazi ham hisoblangan. «Nur» qal'asi qadimdan Jizzaxdan so'ng Buxoro va Samarqand vohasiga kirish uchun ikkinchi darvoza hisoblangan. Nurota (qadimgi «Nur») Buxoroning shimolidagi chekka shahar bo'lib, madaniy o'troq aholi va ko'chmanchi xalqlar yashaydigan hudud chegarasida joylashgan. O'g'uz turklari Nurota vohasidan avval Xuroson, so'ngra Kichik Osiyoga borib o'rnashgan va Saljuqiylar davlatiga asos solgan (XI asr). Qadimgi tosh yo'li orqali Nurga ko'plab karvonlar kelib to'xtagan. Chingizxon qo'shinlari Buxoroga borishda xuddi ana shu yo'ldan (1220 yil yanvar) Nurga kirib kelgan. Shu bois tosh yo'li «xon yo'li» nomi bilan ham yuritilgan. Nurota Somoniylar, Abdullaxon davri (XVI asr) va undan

keyingi davrlarda ham muhim strategik istehkom hisoblangan. Nurotaning ulkan boyligi uning marmar konidir. Shahardagi «Nurotamarmar» sanoat korxonasi ushbu kon xom ashyosi asosida ishlayapti. Shuningdek, Nurotada non kombinati, tikuvchilik fabrikasi, «Nurbuloq», «Nurobod» akstiyadorlik jamiyatlariga qarashli korxonalar, bir necha bozor, savdo do'konlari, madaniy, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari bor. 8 umumiy ta'lim maktabi, pedagogika, qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari, 7 ommaviy kutubxona, klub, «Chashma» o'lkashunoslik muzeyi faoliyat ko'rsatadi (2003). Nurotada 2 kasalxona, 10 dorixona va boshqa tibbiyot muassasalari mavjud.

5-rasm. Nurota shahrining Nur qal'asi ustidan ko'rinishi



Xalq amaliy san'at va hunarmandchiligi qadimdan rivojlangan. Nurota ustalari tomonidan tayyorlangan duradgorlik, temirchilik, chilangarlik, quruvchilik, kulolchilik, miskarlik, kashtachilik, zargarlik mahsulotlari hamisha xaridorgir bo'lib kelgan.

Nurotada antik davrda qurilgan Nur qal'asi qoldiqlari (uni Iskandariya, Iskandar qal'asi ham deyishgan), Pirosta mudofaa devori qoldiqlari va qadimiy korizlar sistemasi (taxminan milotdan avvalgi IV-III asrlar), «Chilustun» jome

masjidi (XIX-XX asr boshlari), Katta Gumbaz masjidi (1582 — 1590 yillar), «Sayidota», «Oqmasjid», «Bargso'z» masjidlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari), Sudur Bobo hammomi (1928 yil) kabi me'moriy va tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Shaharda Mozori Sang Andoz (Pahlavon Ahmad Zamjon). Shoiris (Bibisitam Tagalbos), Mozori bandikusho (Xoji Burhoniddin Jarroh), Chilla mozor (Xoja Ubaydullo Jarroh), qadimiy Nur chashmasi kabi ziyoratgohlar mavjud.

6-rasm. Nurota shahridagi «Chilustun» jome masjidi



NUROTA QAL'ASI - Nurotadagi qal'a xarobasi (taxminan V-VI acrlar); tog'ning etak qismida joylashgan. Asli nomi Nur, xalq uni hurmatlab, «ota» so'zini qo'shib ataydi. Qal'ada katta buloq bor, atrofda undan boshqa oqar suv yo'q. Suv boshiga egalik qilib, dushman qamaliga bardosh berish maqsadida qadimda buloq ustiga paxsadan qal'a qurilgan. U bir necha marta ta'mirlangan. Qal'aning ichida buloq boshiga tushib suv olinadigan maxsus yo'l bo'lgan. Qal'aning tepasi baland qirlik bo'lgani uchun dushmanni kuzatish maqsadida qirning tepasiga mo'la (burj) qurilgan. Mo'la bilan qal'a orasida yo'lak bo'lib, uning uzunligi 60 m. Nurota qal'asi qadimdan muhim strategik qal'a va savdo manzili bo'lgan. Nurota qal'asida keyinchalik Buxoro amirligining Nurota begi turgan.

7-rasm. Qadimiy Nurota qal'asi xarobalari



UCHQUDUQ SHAHRI — Navoiy viloyati *Uchquduq tumanidagi* shahar (1978 yildan), tuman markazi. Viloyatning shimolida. Temir yo'l stansiyasi. Uchquduqdan dan Navoiy shahrigacha 300 km. Aholisi 26,8 ming kishi (2013 yil). 1961 yilda Muruntov oltin konining ishga tushirilishi munosabati bilan barpo etilgan. Uchquduqda oltin, oltingugurt, marmar ishlab chiqaruvchi kon sanoati korxonalari, jumladan, Navoiy konchilik kombinatiga qarashli Shimoliy kon boshqarmasi, Zarafshon qurilish boshqarmasi tasarrufidagi «Shimol» korxonasi, Ko'kpatas geologiya razvedka ekspeditsiya partiyasi, O'zbekiston - Rossiya «Prom-elektro» qo'shma korxonasi, qurilish, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari va shoxobchalari, avtokorxona, 6 umumiy ta'lim maktabi, bolalar musiqa va san'at maktablari, gimnaziya, konchilik kasb-hunar kolleji ishlab turibdi. Madapiyat uyi, 3 kutubxona, klub muassasalari mavjud. Stadion, sog'lomlashtirish punkti, suzish havzasi va boshqa sport inshootlari aholiga xizmat qiladi. Markaziy kasalxona, tibbiy sanitariya qismi, silga qarshi dispanser, poliklinika, ayollar va bolalar konsultatsiyasi, dorixona, ambulatoriya, 4 kasalxona, 2 vrachlik punkti, davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazi va boshqa tibbiy muassasalar faoliyat

ko'rsatadi. Shahar hududidan Navoiy – Uchquduq – Nukus yo'nalishidagi katta avtotrassa o'tadi. Uchquduq – Miskin yangi temir yo'l tarmog'i mavjud.

8 – jadval.

Navoiy viloyatining shahar manzilgohlari haqida ma'lumot

Ma'muriy hududiy birliklar nomi	Kishi
NAVOIY VILOYATI jami shahar aholisi	888433
Navoiy shahar Kengashi	134351
Navoiy shahri	131 089
Tinchlik shaharchasi	3 262
Zapafshon shahar Kengashi	73 125
Zapafshon shahri	62 394
Muruntau shaharchasi	10 731
Konimex tumani	29 409
Konimex shaharchasi	5 514
"Balaqaraq" shaharcha	546
"Mamiqchi" shaharcha	2 005
"Sho'rtepa" shaharcha	2 201
Qiziltepa tumani	135 281
Qiziltepa shahri	12 278
"Husbidin" shaharcha	2 297
"Qalayn-Azizon" shaharcha	3 598
"Baland G'ardiyon" shaharcha	2 707
"G'oyibon" shaharcha	2 673
"Oq soch" shaharcha	2 305
"Vang'ozi" shaharcha	3 426
"Oqmachit" shaharcha	2 510
"Zarmitan" shaharcha	2 973
"G'amxo'r" shaharcha	3 385
"Uzilishkent" shaharcha	2 617
"O'rtako'rg'on" shaharcha	2 847
"Xo'jako'rg'on" shaharcha	2 095
Navbahor tumani	99 202
"Kalkonota" shaharcha	4 481
"Saroy" shaharcha	1 501
"Quyí Beshrabot" shaharcha	2 227
"Keskanterak" shaharcha	3 537
"Ijant" shaharcha	4 047
Karmana tumani	107 290
Karmana shaharcha	21 550
Malikrabot shaharchasi	6 524

"Paxtaobod" shaharcha	1 944
"Podkoron" shaharcha	2 434
"S.Umarov" shaharcha	3 878
"T. G'ofurov" nomli shaharcha	2 666
Nurota tumani	83 085
Nurota shahri	32 353
G'ozg'on shaharcha	6 522
"Qizilcha" shaharcha	3 297
"Temurqovuq" shaharcha	3 254
"Chuya" shaharcha	2 591
"Yangibino" shaharcha	2 357
Tomdi tumani	15 385
Tomdibuloq shaharchasi	5 110
Uchquduq tumani	34 728
Uchquduq shahri	26 857
Shalxar shaharchasi	2 451
Xatirchi tumani	176 577
Yangipabot shahri	17 037
Langar shaharchasi	3 050
"Jaloir" shaharcha	2 168
"Jaloir" shaharcha	2 909
"Polvontepa" shaharcha	1 982
"Saroy" shaharcha	3 005
"Tasmachi" shaharcha	4 680
"Bog'ishamol" shaharcha	1 145
"G'alabek" shaharcha	1 772
"Paxtakor" shaharcha	1 991
"Turkman" shaharcha	881
"Yangi qurilish" shaharcha	1 542

Jadval Navoiy viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

QIZILTEPA SHAHRI – Navoiy viloyati *Qiziltepa tumanidagi* shahar, tuman markazi. Temir yo'l stansiyasi. Qiziltepadan viloyat markazi (Navoiy shahri) gacha 54 km. Aholisi 12,2 ming kishidan ziyod (2013). Shahar yonidan Chovli arig'i o'tgan.

Shahar xo'jaligi. Paxta tozalash, un, g'isht zavodlari, neft mahsulotlari saqlash korxonasi, parrandachilik fabrikasi, qurilish tashkilotlari, mahalliy sanoat, aloqa va transport korxonatari ishlab turibdi. 3 qo'shma, 35 ta kichik

va o'rta biznes korxonalari, mikrofirmalar, savdo, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyat ko'rsatadi.

Qiziltepadagi 3 umumiy ta'lim maktabida 2,0 mingdan ziyod o'quvchi ta'lim oldi (2012). 2 litsey, internat maktabi, musiqa va san'at maktabi, 2 kasb-hunar kolleji bor. 19 kutubxona, 2 klub, 3 madaniyat uyi, 2 madaniyat va istirohat bog'i, muzey faoliyat kursatadi. 3 stadion va boshqa sport inshootlari mavjud.

Tibbiyot muassasalaridan 2 kasalxona, 2 poliklinika, 3 ambulatoriya, 2 feldsher-akusherlik punkti, 29 dorixona aholiga xizmat ko'rsatadi. Bu tibbiy muassasalarda 77 vrach va 320 o'rta tibbiy xodim ishlaydi. Shahar hududidagi mahallalarda hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Kulolchilik buyumlari, bo'yra va h. k. tayyorlanadi. Qiziltepada 1971 yildan «Qiziltepa tongi» tuman gazetasi nashr qilinadi (adadi 8000).

Qiziltepadan Buxoro – Samarqand avtomobil yo'li (Zarafshon trakti), temir yo'l o'tgan. Qiziltepadan Navoiy, G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent shaharlariga avtobus va marshrutli taksilar qatnovi yo'lga qo'yilgan.

YANGIRABOT SHAHRI – Navoiy viloyati *Xatirchi tumanidagi* shaharcha (1972 yildan), tuman markazi. Yaqin temir yo'l stansiyasi — Zirabuloq (14 km). Yangirabotdan Navoiy shahrigacha 70 km. Aholisi 17,0 ming kishi (2013 yil). Paxta tozalash zavodi, non kombinati, MTP, kurilish korxonalari va boshqa bor. Kichik, o'rta biznes korxonalar, mikrofirmalar ishlab turibdi. Umumiy ta'lim maktablari, litsey, bolalar musiqa va san'at maktabi, kasb-hunar kollejlari, tuman markaziy kutubxonasi, muzey, klub muassasalari, madaniyat saroyi, Mustaqillik, Xotira maydonlari, madaniyat va istirohat bog'i bor. Markaziy stadion, sport maydonchalari va sport zallari va boshqa bir qancha sport inshootlari faoliyat ko'rsatadi. Tuman markaziy kasalxonasi, tug'ruqxona, poliklinika, dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar aholiga xizmat ko'rsatadi. Yangirabot bilan Navoiy shahri o'rtasida avtobus va mikroavtobuslarlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Yangirabotdan qoshni Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Oqtosh

shaharlari hamda Mirbozor va Ziyoviddin shaharchalariga ham avtobus va mikroavtobuslarlar qatnovi yo'lga qo'yilgan.

2.2. NAVOIY VILOYATI SHAHARCHALARIGA TA'RIF

KARMANA yoki Karmina (asli sug'diycha Xarmana - katta saroy) — Navoiy viloyatidagi qadimiy shaharlardan biri. Viloyat hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar va kuzatishlarning natijalaridan ma'lum bo'lishicha, Zarafshon vodiysining daryo, bir qismi adirlik va dashtlik erlarini kesib o'tgan o'rta qismida joylashgan keng bu hududda aholi o'rta tosh davrining muste (mil. av. 150-40 ming yilliklar) bosqichidan boshlab yashab keladi. Bunga misol tariqasida Qalqonota qishlog'i yaqinida, Uchtut mavzeida, topib tekshirilgan muste davri tosh qurollari yasash ustaxonasi va ibtidoiy odamlar makoni hamda neolit davri (mil. av. V – III ming yilliklar) da chaqmoqtosh bo'laklari kavlab olingan. Eng qadimiy kon — «Uchtut shaxtasi» (ustaxonasi) ning o'rni va lahlari (tunnel qoldiqlari); shuningdek, Sarmishsoy va Biyronsoy bo'ylab jez (bronza) davridan boshlab to ilk o'rta asrlargacha o'tgan uzoq ming yilliklar mobaynida qadimiy ovchi va podachilarning qoyalarga o'yib tushirgan turli mazmundagi tasvirlari hamda ov manzaralari kabi noyob osori-atiqalarni sanab o'tish mumkin. Qalqonota va Konimex atroflarida qayd etilib, tadqiq etilgan miloddan avvalgi VI-IV va milodning I-V asrlarga mansub moddiy madaniyat obidalari, Qumrabod, Arabon va Chordara kabi qadimiy qishloq xarobalari, shuningdek, Shodibek, Sho'rovul va Kalqonota mozor qo'rg'onlaridan topilgan arxeologik topilmalarga qaraganda, qariyb ming yillikni qamragan bu davrda Karmana hududida, xususan, daryoning o'ng tomonida joylashgan uning shimoliy qismida o'troq dehqonchilik hayoti ancha gavjum bo'lgan.

Ammo Karmana hududining qadimiy tarixi, ayniqsa, bu ko'hna maskanda dehqonchilik va chorvachilik yoki hunarmandchilik kabi kasb va xo'jaliklarning yuzaga kelishi va taraqqiyoti, shaharsozlik madaniyatining shakllanishi tarixiga oid moddiy-madaniyat obidalari bizning davrimizgacha etib kelmagan. Yozma manbalarda keltirilgan bor ma'lumotlar esa, asosan, keyingi davrlarga — o'rta

asrlarga mansubdir. Buning ustiga ular g'oyatda qisqa va uzoq-yuluqdir. X asr Buxoro tarixchisi Muhammad *Narshaxiyning* ta'rificha, «Karmina Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi; xiroji Buxoro xirojiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor: unda masjidi jome barpo etilgan». Buxoro vohasining sug'orma dehqonchilik erlari Karmana hududidan boshlangan. Narshaxiyning ta'rificha, vohaning Zarafshon daryosidan bosh olgan sug'orish tarmoqcharidan dastlabkisi Karmina anhuri hisoblangan. Uni Narshaxiy katta anhor deb yozadi. IX-X asrlarda Buxoroning dehqonchilik erlaridan to'planadigan xiroj solig'idan tushgan har yilgi daromad Karmana erlarini qo'shib hisoblaganda, «bir million bir yuz oltmish sakkiz ming besh yuz oltmish olti diramu besh yarim donakni tashkil etgan». Keyinchalik Karmananing xiroji Buxoro xirojidan ajratilib alohida olingan.

Ushbu ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, Karmana Buxoro vohasining dehqonchilik rustoq (tuman)lari qatoridan joy olgan. U Zarafshon daryosidan chiqarilgan alohida kanal orqali sug'orilgan. Karmana rustog'i ilk o'rta asrlarda Buxoro vohasining 15 ta dehqonchilik rustoqlarini o'rab o'tgan qadimiy mudofaa inshooti – Kanpirak devoridan tashqarida joylashgan. O'rta asr yozma manbalarida bu tashqi rustoq Karmana, ba'zan esa Yasir nomlari bilan tilga olinadi. Rustoqning markazi ham Karmana nomi ostida shuhrat topgan. Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Buxoro bilan Karmana oralig'i 14 farsang (98-112 km) uzunlikka ega bo'lgan. XII asr muallifi Muhammad as-Sam'oniyy bu masofani 18 farsax (120-144 km) ga teng bo'lgan deb yozadi. Karmana rustog'i hududidan oqib o'tgan Zarafshon daryosining har ikki sohillari bo'ylab Arfud yoki Varqud, Xaromkas yoki Zargonkas va Xarjankas hamda Xudimankan kabi katta-kichik shahar va qishloqlar joylashgan. Aholi yashagan bu qadimiy turar joy orasida eng gavjumi Karmana shahri hisoblanib, unda adiblar va shoirlar ko'p bo'lgan.

XII asrda Karmana shahri xorazmshoh Elbarsxon (1156-1172) tomonidan vayron qilingan. Keyinchalik u qayta tiklanib, XV asrda yana yirik shaharga aylangan. So'nggi o'rta asrlarda, xususan, Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan davrda (1753-1920) Karmana viloyati alohida imtiyozli

beklikka ajratilib, u Buxoro amirining valiahdi tomonidan boshqarilgan. Jumladan, Amir *Abdulahad* va Sayid Olimxonlarning qarorgohlari Karmana shahrida bo'lgan. Hatto Abdulahad vafotidan so'ng, mayyit Buxorodan olib kelinib, Karmanada dafn etilgan. Sho'rolar davrida Karmana Navoiy rayonining ma'muriy markazi bo'lgan. Keyinchalik *Navoiy* shahrining kengayishi munosabati bilan unga qo'shilib ketgan. Hozirda shaharda me'moriy yodgorliklardan *Mir Sayd Bahrom maqbarasi* (XI asr) va *Qosim Shayx xonaqosi* (XVI asr) *Raboti Malik* xarobasi saqlangan.

Karmana shubhasiz, Navoiy viloyatidagi qadimgi aholi manzilgohlaridan biri hisoblanadi. Yaqinda Navoiy viloyat ma'muriy birligida Karmana tumanining tashkil ketilishi bilan Karmana shaharchasi uning markazi etib belgilandi. Ayni paytda Karmanada 21550 kishi yashaydi (01.01.2013 yil). Tuman aholisining (107290 kishi) 20,0 foizi Karmana shaharchasida istiqomat qiladi.

KONIMEX Navoiy viloyatidagi shaharcha (1935 yil). Konimex tumani markazi. Yaqin temir yo'l stansiyasi Konimex (7 km), viloyat markazi Navoiygacha 100 km. Zarafshon vohasini qismida Zarafshon daryosidan Konimex arig'i orqali suv oladi. Aholisi 8,4 ming kishi (2002). Konimex qadimiy aholi punktlaridan biri. Shaharcha nomining kelib chiqishini – Kon - (kom-) — anhor, kanal, «mex- yokn mug'» — otashparast, ya'ni Konimex — Otashparastlar anhuri so'zlari bilan bog'laydilar. Konimex cho'l sharoitida joylashganligi tufayli unda aholining hududiy mujassamlashuv darajasi past. Shaharchada 5514 kishi yashaydi (01.01.2013 yil), bu raqam Karmana aholisiga nisbatan 4 marta kamdir.

Shaharchala tuman hokimligi binosi, qurnlish korxonalari, avtokorxona. aloqa bo'limi, gazlashtirilgan , elektr tarmoqlari korxonalari, dehqon bozori, MTP, «Ishonch», «Sayxun» aksiyadorlik jamiyatlarni bor 4 umumiy ta'lim maktabi (shundan 1 tasi maktab-gimnaziya), kasb-hunar kolleji, sport maktablari, 2 kutubxona, klub, tarixiy - o'lkashunoslik muzeyi faoliyat ko'rsatadi. Konimexdan viloyat markazi, qo'shni tuman markazlari va boshqa aholi punktlariga avtobus qatnaydi.

G'OZG'ON — Navoiy viloyati *Nurota tumanidagi* shaharcha (1975 yildan). Yaqin temir yo'l stansiyasi — Navoiy (76 km). Tuman markazi Nurota shahridan 17 km g'arbda. Aholisi 5,9 ming kishi (2004). G'ozg'onda qadimdan yuqori sifatli *marmar* qazib olinadi. G'ozg'on marmari, ma'muriy binolar va madaniy obidalarni bezashda ishlatiladi. «G'ozg'onmarmar» korxonasi, maktablar, kasalxona va boshqa tibbiy muassasalar bor.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyatidagi shaharlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- Aholi punktlari, shu jumladan shaharlar joylashuvida keskin farqlanish (kontrastlik) kuchli. Ekstensiv hududlarda shaharlar notekis, siyrak holda, kichik shaharlar tarzida shakllansa, ayni paytda uncha katta maydonlarni egallamaydigan intensiv dehqonchilik rayonlarida esa ular g'uj joylashgan bo'lib, murakkab hududiy tuzilmalarni hosil qilgan;

- Shaharlarning funksional tiplari rivojlanmagan. Sanoati tor ixtisoslashuvga ega;

- Cho'l mintaqasi tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda, shahar atrofi qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanmagan;

- Shaharlar va boshqa aholi manzilgohlari arxitekturasi, ularning tashqi qiyofasi, joyning iqlim sharoitiga muvofiq (cho'zinchoq yoki nuqtasimon) holda vujudga keladi;

Taklif va tavsiyalar:

1. Navoiy viloyatining tabiiy sharoitidan (cho'llik xususiyatidan) kelib chiqqan holda, shaharlarni ko'kalamzorlashtirish o'ta muhim hisoblanadi. Bu borada viloyatning voha shaharlarida gujum, tut, archa (mojjevelnik), yasen, yapon soforasi, eman singari manzarali daraxtlar ekish tavsiya etiladi. Bevosita cho'l sharoitida joylashgan (Zarafshon, Uchquduq, Muruntov, Shalqar va b.) shaharlar atrofida esa cho'l uchun mos bo'lgan saksovul, qandim, cherkez kabi daraxtlardan iborat "yashil belbog" tashkil qilish yaxshi natijalar beradi. Hosil qilingan ushbu zona, birinchidan, cho'lni har xil tabiiy inijliklaridan (garmsel, qattiq sovuq, qum ko'chishi) himoya qilsa, ikkinchidan, shaharlar mikroiqlimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Navoiy viloyati shaharlari katta turistik imkoniyatlarga ega. Jumladan, qadimiy Karmana va Nurotani O'zbekistonning katta turistik markazlari sirasiga kiritish mumkin. Mazkur shaharlarning muqaddas qadamjolari va tarixiy yodgorliklari asrab avaylash va ularga ko'proq sayyohlarni jalb qilish yo'llarini izlab topish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

3. Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda shaharlar rivojlanishi u yerda yaratilgan investitsiya muhiti bilan belgilanadi. Shaharlar

investitsiya muhitining qulayligini undagi qo'shma korxonalar sonidan bilish mumkin. Bu borada Navoiy viloyatining kichik shaharlarida talay muammolar mavjud. Konimex, Yangirabot, Beshrabot singari shaharlarda qo'shma korxonalar hamon vujudga kelmagan. Kelajakda mazkur shaharlarda Navoiy EIIZ dasturlari asosida infratuzilma va investitsiya muhitini yaxshilash asosida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish yo'llarini izlab topish lozim.

4. "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturiga asosan viloyatda 39 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Ammo ularning barchasini hozirgi davr shaharsozlik talablariga javob beradi, deb bo'lmaydi. Yangi shaharchalar imkoniyatini atroflicha baholash, rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra guruhlariga ajratish, investitsiya muhitini yaxshilash, ularni hozirgi zamon shaharsozlik talablariga moslashtirish zarur.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Navoiy viloyatidagi shaharlarni imkon qadar o'rganishga harakat qildim. Meni fikrimcha, mazkur shaharlarni har birini alohida bitiruv malakaviy ishi darajasida o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu o'rinda, meni 4 yil davomida o'qitib, o'zlarining beminnat xizmatlarini ayamagan kafedramizning barcha professor-o'qituvchilariga, hurmatli ustozlarimga, xususan ilmiy rahbarim geografiya fanlari nomzodi, dotsent A.Mavlonovga o'zimning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman. Kelajakda ularga munosib shogird bo'lishga va'da beraman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. – T., O'zbekiston, 1997. 320 b.

2. Административно-территориальное деление 2008. Статистический сборник. – Т., 2008. – 102 с.
3. Акрамов З.М. Проблемы хозяйственного освоения пустынных и горно-предгорных территорий. – Т.: Узбекистан, 1974. – 176 с.
4. Алибеков Л.А. Щедрость пустыни. – М.: Мысль, 1988. – 174 с.
5. Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – Samarqand, 2006. 163 b.
6. Asanov G.R. Sostial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati. – Т., O'qituvchi, 1990. – 248 b.
7. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Т.: Университет, 2002. – 125 с.
8. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н. Узбекистан: природа население экономика. –Т.: Гос. науч. изд. “Узбекистон миллий энциклопедияси”, 2009. – 240 с.
9. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-Т., “Abu Ali Ibn Sino”, 2002.
10. Бабаев А.Г. Проблемы освоения пустынь. –Ашхабад, Ёлым, 1995. – 336 с.
11. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -Т.: O'qituvchi, 2002.–264 b.
12. Лаппо Г.М. География городов. – М.: Владос, 1997. – 480 с.
13. Лейзерович Е.Е. Экономико-географические проблемы освоения пустынь. – М.: Мысль, 1968. – 158 с.
14. Mavlonov A. Cho'l urbanizatsiyasi. Buxoro, 2015. – 173 b.
15. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. Т., 2002. – 80 b.
16. Перспективы развития производительных сил Бухара-Навоийского (Кызилкумского) производственно-территориального комплекса. – Т., 1972. – 863 с.
17. Rasulov M. Cho'llarni o'zlashtirish muammolari. – Т.: O'zbekiston, 1973. – 38 b.
18. Римша А.Н. Город и жаркий климат. – М.: Стройиздат, 1975. – 280 с.

19. Салиев А.С. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. – Т.: Фан, 1991. – 109 с.
20. Soliyev A.S., Ahmedov E.A. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003. – 304 b.
21. Qodirova T.F. Navoiy. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 47 b.
22. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T.: O'qituvchi, 2007. – 162 b.

Бухоро давлат университети Табiiй фанлар факультети
География таълим йўналиши битирувчиси
Ғайратова Наргиза Жонпўлатовнанинг
“Навоий ви лояти шаҳар манзилгоҳлари ва улар ривожланишининг
географик асослари” мавзусида ёзган
битирув малакавий ишига

ТАҚРИЗ

Ушбу битирув малакавий иши Навоий вилоятининг шаҳар манзилгоҳларига бағишланган. БМИ кириш, 2 та боб, 5 та қисм, хулоса ва таклифлар, адабиётлар рўйхати ҳамда иловалардан иборат.

Кириш қисмида Президентимизнинг Навоий шаҳри тўғрисидаги сўзлари, мустақиллик йилларидаги ислохотлар, БМИ нинг мақсад ва вазифалари хусусида сўз боради. Шунингдек, битирувчи нега ушбу мавзунини танлаганлигининг сабабини кўрсатиб ўтган.

Биринчи боб “Навоий вилояти шаҳарларининг вужудга келиши ва жойланиши” деб номланиб, у уч қисмдан таркиб топган. Унда Навоий вилоятининг қисқача умумгеографик тавсифи, вилоят шаҳарларининг ривожланиш тарихи ва демографик вазияти таҳлил қилинган.

Мазкур бобда битирувчи шаҳаршунос олимлар Г.М.Лаппо, Л.Л.Трубе, И.М.Маергойз, О.Б.Ата-Мирзаев, А.С.Солиевларнинг асарларини ўқиб улардан ҳаволалар келтирган. Бундан ташқари, аҳоли рўйхатлари ва Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси ва Навоий вилояти статистика бошқармаси маълумотларини ўрганиб улар асосида бир нечта жадвал ва расмлар тузган ва таҳлил қилган. Мазкур ҳолат битирувчинини мустақил тадқиқотчилик қобилиятининг шаклланганлигидан далолат беради.

Битирув малакавий ишнинг иккинчи боби ишнинг асосий мазмунини ташкил этиб, у “Навоий вилоят шаҳарларига иқтисодий географик тавсиф” деб номланган. Битирувчи ҳар бир шаҳарнинг географик ўрни, вужудга келиши ва ривожланиш тарихи, шаҳар табиати, аҳолиси ва меҳнат ресурслари ҳамда хўжалик тармоқлари ва ижтимоий-маданий соҳалари тўғрисида батафсил тўхталиб ўтган. Айниқса, Наоий, Зарафшон, Нурота ва Учқудуқ шаҳарлари тўғрисида жуда кўп маълумотлар келтирилган. Мазкур боб умуман шаҳарлар географияси, хусусан Навоий вилояти шаҳарларига оид илмий ва оммавий адабиётлар, карталар ва бошқа манбалар маълумотларини таҳлил қилиш асосида ёзилган. Шунингдек, битирувчининг вилоятдаги айрим шаҳарларда бўлиб, улардаги ижтимоий-иқтисодий вазият билан яқиндан танишганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Хулоса ва таклифлар қисмида битирувчи Навоий вилояти шаҳарларининг келажакдаги ривожланишига доир ўзининг 4 банддан иборат таклиф ва тавсияларини берган.

БМИда юқорида кўрсатиб ўтилган ютуқлар билан бирга айрим жузъий хатоликлар борлиги ҳам аниқланди.

1БМИда мавжуд 53 шаҳар манзилгохларида Навоий Зарафшон Нурота ва Учқудуқ шаҳарлари яхши ўрганилган қолган шаҳарлар ҳақида маълумотлар кам

2. БМИнинг 36 бетида келтирилган Навоий вилояти табиий харитасида шаҳар ва шаҳарчалар кўрсатилган аммо харитасидаги айрим шаҳарчалар хиралиги учун ўқишда ноқулай.

Юқорида кўрсатиб ўтилган камчиликлар БМИнинг илмий жихитига салбий тасир кўрсатмайди ва уни қийматини камайтирмайди

Келгусида Навоий вилояти ҳудудида жойлашган янги шаҳар ва шаҳарчаларни чуқурроқ тадқиқ этишни битирувчи ўз олдига мақсад қилиб қўйган

Битирув малакавий ишининг моҳияти ва мазмунидан келиб чиқиб унинг истиқболдаги аҳамиятини ҳисобга олиб уни ижобий баҳолайман.

БухДУ Тупроқшунослик ва география кафедраси

Ўқитувчиси :

Қ . Баҳромов

5.06. 2015.